

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



# DEFEKTOLOGIYA

**Ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan  
bolalarning inklyuziv ta'limi**

**MODULI BO'YICHA**

# O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

А	Б	В	Г	Д	Е	Ж
З	И	Й	К	Л	М	Н
О	П	Р	С	Т	У	Ф
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы
	Ь	Э	Ю	Я		

**TOSHKENT-2022**



**Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

**Tuzuvchilar:** p.f.d., prof. L.R.Mo'minova.  
p.f.n., dos. Z.M.Axmedova

**Taqrizchilar:** p.f.n., prof. M.Yu.Ayupova

**Xorijiy ekspert:** p.f.d., professor O.S.Orlova – Rossiya, Moskva davlat pedagogika universiteti.

**O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**



## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>29</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>69</b>
<b>V. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>78</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>81</b>
<b>VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>85</b>



## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2014 yil 13 noyabrdagi 430 – sonli buyrug'i bilan (buyruqning 2- ilovasi) tasdiqlangan. “Inklyuziv ta'lim” fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida tayyorlangan. Dastur mazmuni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari vaqonunchilik normalari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizidailmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

Inklyuziv ta'limning mohiyati, imkoniyatlari va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish hamda ushbu ta'limni sifatli tashkil etish, maqsadli rivojlantirish yo'llarini ochib berish.

Maqsadli kurs inklyuziv ta'lim malaka oshirish kursiga katnash oliy ta'lim pedagoglarga uchun tayyorlangan

Kurs yakunida ishtirokchilar:;

Bilib oladilar:

- inklyuziv ta'limning mohiyati;
- inklyuziv ta'limning milliy va jahon tajribalari namunalarini;
- inklyuziv ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari, ularning maqsad va vazifalarini;
- alohida e'tiborga muhtoj bolalar toifalarini;
- ta'limda maxsus ehtiyojlar ko'lami va tavsiflarini;
- inklyuziv ta'lim ishtirokchilari vazifalarini;
- inklyuziv ta'limning samaralarini ta'minlovchi omillarni;
- inklyuziv ta'limning ijtimoiy ahamiyatini;
- ta'lim muassasalarining inklyuzivlashganlik mezonlarini;
- alohida maxsus ta'lim dasturlari va ularning mohiyatini;
- shaxsiy ta'lim rejalarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablarni;
- umumiy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni o'quv jarayonini tashkil qilish

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Deffektologiya”yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalariga ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi faning zamonaviy dolzarb muammolari haqidagi tasavvurlarni hosil qilish;



Talabalarning ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limifani bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning sohaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish; pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovasion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **Egallaydilar:**

– -Inklyuziv ta'limga oid milliy va xalqaro xujjatlarning nomi va xronologik jadvalini;

– -alohida e'tiborga muhtoj bolalarning maxsus ehtiyojlarini baholashni;

– -ta'lim muassasalarini inklyuziv ta'lim mezonlari bo'yicha baholashni;

– -inklyuziv ta'lim ishtirokchilarining vazifalarini ajratishni;

– -shaxsiy ta'lim rejalarini ishlab chiqishni

#### **Bajaradilar:**

– -inklyuziv ta'limga ta'rif berish;

– -inklyuziv ta'lim jarayonida o'z ishtirokining maqsad va vazifalarini ishlab chiqish;

– -yaqin va uzoq kelajak uchun inklyuziv ta'limni joriy etish, mustahkamlash va rivojlantirish rejasini tuzish.

– fanning ta'limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;

– fanning rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;

– ta'limjarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim*.

– o'qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;

– moderator o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;

– fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart testlar hamda o'quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;



– o'quv axborotni qayta ishlash, muammoli vaziyat, Keys-stadi topshiriqlarini tuzish;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;

– didaktik ta'minotni takomillashtirish kabi *malakalariga ega bo'lishi lozim.*

– Ta'limda alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarda inklyuziv ta'lim fanining zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyalarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish;

– mashg'ulotlarda innovasion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llash;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;

– rivojlangan mamlakatlarda tarix fanini o'qitish metodikasidagi ilg'or tajribalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga modernizatsiya qilgan holda qo'llash *kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.*

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Deffektologiya” yo'nalishi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“**Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari**” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Ta'limda alohida ehtiyoji bulgan bolalarning inklyuziv ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish”, “Pedagogik tadqiqot natijalarini tahlil qiluvchi axborot tizimlari”, o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoqlarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali



ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

### Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim fanining zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladi.

### Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy soat	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsad va vazifalari. Ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi	2	2	-
2.	Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablari.	2	2	-
3.	Dunyo miqyosida va O'zbekistonda alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar	2	2	-
4.	Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'limga uyg'unlashtirish asoslari. Inklyuziv ta'lim, uning komponentlari	2	2	-
5.	Inklyuziv ta'lim tizimida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari	2	2	-
6.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etishda maktab ta'lim muassasalari raxbariyati va pedagoglarning vazifasi	2		2
7.	Inklyuziv ta'lim bo'yicha Chet el tajribasi.	2		2
8.	Inklyuziv ta'lim bo'yicha Respublikada olib borilgan va olib borilayotgan faoliyat	2		2



9.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPK ning roli.	2		2
10.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda individual dasturlarini tuzish, metodik va didaktik ta'minotini yaratish.	2		2
11.	Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.	2		2
12.	Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalar, maxallalar va pedagoglarning o'rni xamkorligi.	4		4
<b>Jami</b>		<b>26</b>	<b>10</b>	<b>16</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-Mavzu: Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsad va vazifalari. Ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi.**

Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsad va vazifalarini ochib berish. Ta'limda ehtiyoji bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi haqida

### **2-mavzu. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablari.**

Uyg'unlashtirish uchun o'nta asos. Inklyuziv (uyg'unlashtirilgan) ta'limni qo'llab-quvvatlashning zaruriyati, afzallik tomonlari.

“Integratsiya” va “Inklyuziv” atamalarining ma'nosi. Inklyuziv va integratsion tushunchalarining farqli tomonlari. Inklyuziv ta'limda hal etiladigan maqsad va vazifalar. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari va ularning mazmuni. Inklyuziya doirasi.

### **3-mavzu. Dunyo miqyosida va O'zbekistonda alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar**

BMTning “Inson huquqlari to'g'risida”gi, “Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida”gi umumjahon Deklaratsiyalari, “Bolalar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi, “Ta'lim-barcha uchun” Umumjahon Deklaratsiyalarining mazmun-mohiyati.

Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasining ishlab chiqilishi. “Dakar harakat dasturi”.

O'zbekiston Respublikasining “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi Qonuni (1991 yil 18 noyabr), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”





(1997 yil), “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (1997 yil), “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni.

Keltirilgan barcha huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyatning to’laqonli va tenghuquqli a’zosi ekanligi e’tirof etilib, har bir bolaning ta’lim turini tanlashida erkinligi, oilada bo’lish huquqi, o’z uyi hamda mahallasida kamol topishi, barcha qatori teng ravishda bilim olishi kabilarni ta’minlashga qaratilganligi.

**4-mavzu. Alohida e’tiborga muxtoj bo’lgan bolalarni umumta’limga uyg’unlashtirish asoslari. Inklyuziv ta’lim, uning komponentlari.**

Alohida e’tiborga muxtoj bo’lgan bolalarni umumta’limga uyg’unlashtirish asoslari. Inklyuziv ta’limning xuquqiy, kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik va keng tadbiq etish moxiyatini ochib berish.

**5-mavzu: Inklyuziv ta’im tizimida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari.**

Inklyuziv ta’limda ta’lim tizimini alohida yordamga muhtoj bolaga moslashtirish markaziy o’rinni egallashi. Nogironlikning tavsifi.

Nogironligi bo’lgan insonning hayoti davomida turli-tuman to’siqlarga uchrashi. To’siqlar tahlili. Maxsus ta’limga bo’lgan ehtiyoj jabhalari. Maxsus ta’lim ehtiyojlarining tavsifi

**AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga joriy etishda maktab ta’lim muassasalari raxbariyati va pedagoglarning vazifasi**

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limga joriy etishda maktab direktori, o’qituvchilari, psixolog va defektologlarning vazifalari bilan tanishtirish.

**2-amaliy mashg‘ulot: Inklyuziv ta’lim bo’yicha Chet el tajribasi.**

Inklyuziv ta’lim bo’yicha Chet el tajribasi bilan tanishish ( Angliya, AQSh, Italiya, Avstriya, Litva, Frans iya).

**3-amaliy mashg‘ulot: Inklyuziv ta’lim bo’yicha Respublikada olib borilgan va olib borilayotgan faoliyat**

Respublikda inklyuziv ta’limning tarixi, chet el loyixalari va ularning natijalari. Respublikada xozirgi davrda olib borilayotgan ishlar.



**4-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPK ning roli.**

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPK ning maqsad, vazifalari va saralash metodikalari bilan tanishtirish

**5-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda individual dasturlarini tuzish, metodik va didaktik ta'minotini yaratish.**

Imkoniyati cheklangan bolalarni hususiyatlarini, nogironligini e'tiborga olgan holda individual dasturlarini tuzishga o'rgatish, metodik va didaktik ta'minotini tayyorlash usullari bilan tanishtirish.

**6-amaliy mashg'ulot: Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.**

Talabalarga maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni ta'lim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlashni o'rgatish.

**7-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalar, maxallalar va pedagoglarning o'rni xamkorligi.**

Talabalarga inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga uzluksiz ta'lim tizimida korreksion pedagogik ishlarni tashkil etishning tashkiliy, xuquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish usullari haqida bilim berish.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).



## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Bugungi kunda o'qitishning zamonaviy metodlari ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.


Bu metodlar interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. **Interfaol metodlar** degandata'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;



- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

**Davra stoli tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'oz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Davra suhbat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**


1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.



6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.



Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI-** biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;



- ✓ fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



**Metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammo bo'yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta'lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya'ni turli g'oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta'lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g'oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo'yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“FSMU”–(fikr, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval tinglovchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, tinglovchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.



**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** "Tarix fanidan davlat ta'lim standartlari talablarini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish va sertifikatlashtirish ta'lim samaradorligining eng muhim omillaridan biridir".

**1-Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

**2-Topshiriq:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi davlat boshqaruvining asosiy farqlari?

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.





### Metodni amalga oshirish tartibi:



Ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



Mashg'ulotning maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



Navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

#### Namuna:

Ta'limda alohida extiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi fanidan Davlat ta'lim standarti			
Sobiq standart		Yangi standart	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>			

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Namuna:** Ta'limda alohida extiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limio'qitishda "Xulosalash" metodning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Ta'limda alohida extiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limio'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning	
----------	---	--



	kuchli tomonlari	
<b>W</b>	<b>Ta'limda alohida ehtiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi</b> o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning kuchsiz tomonlari	
<b>O</b>	<b>Ta'limda alohida ehtiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi</b> o'qitishda "Xulosalash" metodidan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	

**Namuna:** An'anaviy va zamonaviy ta'lim shakllarini "SWOT-tahlil" metodida tahlil qiling.

<b>S</b>	Oddiy darsda o'qituvchi, tinglovchilarga ko'p ma'lumot bera olmaydi	Zamonaviy darsda kamroq ma'lumot beriladi, biroq ular tinglovchilar ongiga singdirib beriladi
<b>W</b>	O'qituvchi asosan a'lochi, qiziquvchi tinglovchilar bilan gaplashadi, ya'ni darsda oz sonli tinglovchilar qamrab olinadi	Zamonaviy ta'limda darsda ko'p sonli tinglovchilar qamrab olinadi
<b>O</b>	Oddiy darsda faqat o'qituvchi reja asosida va tayyorlab kelgan ma'lumotlari atrofida gaplashiladi	Zamonaviy darsda muhokamalarayonida yangi-yangi masalalar, muammolar yuzaga chiqishi, g'oyalartug'ilishi mumkin
<b>T</b>	O'qituvchi uchun asosiy to'siq – dasturdan chiqib keta olmaslik, tinglovchi uchun qiziqmasa ham o'qituvchini eshitib o'tirish majburiyati	Keng muhokama uchun vaqtning chegaralanganligi, tinglovchilarni mavzudan chetga burishga intilishlari

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;

- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;

- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:



Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“-” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Pinbord (inglizchadan: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o'quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Muammoni hal qilishga oid fikrlarni tizimlashtirish va guruhlashtirish (klassifikatsiya)ni amalga oshirishga, jamoa tarzda yagona yoki aksincha qarama-qarshi pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi.

O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi (rag'batlantiradi). Fikrlarni taklif qiladilar, muhokama qiladilar, baholaydilar va eng optimal (samarali) fikrni tanlaydilar. Ularni tayanch xulosaviy fikr (2 ta so'zdan ko'p bo'lmagan) sifatida alohida qog'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar.

O'qituvchi bilan birgalikda flipchart (maxsus doska va maxsus qog'oz yopishtirish imkonini beradigan skotch) yordamida fikrlar jamlanadi, klassifikatsiya qilinadi, muhokamada esa optimal yechimlar bo'yicha aniqlanadi.

Guruh namoyondalari doskaga chiqadilar va maslahatlashgan holda:

- 1) yaqqol xato bo'lgan yoki takrorlanayotgan fikrlarni olib tashlaydilar;
- 2) bahsli bo'lgan fikrlarni oydinlashtiradilar;
- 3) fikrlarni tizimlashtirish mumkin bo'lgan belgilarini aniqlaydilar;
- 4) shu belgilar asosida doskadagi barcha fikrlarni (qog'oz va varaqlaridagi) guruhlariga ajratadilar;
- 5) ularning o'zaro munosabatlarini chiziqlar yoki boshqa belgilar yordamida ko'rsatadilar: jamoaning yagona yoki qarama-qarshi pozitsiyalari ishlab chiqiladi.


### Madaniyat

moddiy madaniyat	ma'naviy madaniyat



Konseptual jadval metodi - turli g'oyalarni, qarashlarni o'zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo'yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod tinglovchilarni o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashga o'rgatadi. Undan foydalanishda tinglovchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg'ulotlar chog'ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:



O'rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			
2-jihat			
...			

Namuna:

Ta'limda alohida extiyojli bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi darslarida interfaol ta'lim usullaridan foydalanishning jihatlari	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
“Assesment”			
“Insert”			



“Tushunchalar”			
“Brifing”			
“Bahs-munozara”			
“Muammoli vaziyat”			

**Metodning maqsadi:** mazkur metod Tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
  - tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
  - belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
  - har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
inklyuziv ta’limga oidmanba		
inklyuziv ta’limga oid adabiyot		
inklyuziv ta’limga oidhujjat		
inklyuziv ta’limga oidxarita		
inklyuziv ta’limga oidsurat		
inklyuziv ta’limga oid fonogramma		
inklyuziv ta’limga oidxat		
inklyuziv ta’limga oidmakon		



**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

### **“Muammoli vaziyat” metodi**

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. “Muammoli vaziyat” metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



### **“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.



5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlarini to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko'ra batafsil yoritish maqsadida qo'llaniladi. Ko'p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi.

Agar ular yozilgan fikrga qo'shilsalar, birinchi ustunda "+“ aks holda uchinchi ustunda “-“ belgisini qo'yadilar.

**Izoh: O'qituvchi:** Yangi mavzuni bayon qiladi va tinglovchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so'raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;

- vaqt tugagach tinglovchilardan izohlarsiz o'z fikr – mulohazalarini o'qib eshittirishlarini aytadi;

- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

**Tinglovchi:** - mavzuni diqqat bilan tinglaydi;

- o'zi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;

- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o'zining mustaqil fikrini bildiradi;

- yakuniy xulosasi bilan o'tirganlarni tanishtiradi;

- reglamentga rioya qiladi.

**Kutiladigan natija:** Tinglovchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi

### “T-jadval” texnologiyasi

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
+ (ha, ijobiy)afzalligi (yutug'i)	- (yo'q, salbiy)kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...

### “Innovatsion texnologiyalarni darsda foydalanish”



<b>Afzalliklari</b>	<b>Kamchiliklari</b>
“Qaytar aloqa”ning ta'minlanishi	ko'p vaqt talab etilishi
motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi	tinglovchilarni nazorat qilish imkoniyatining pastligi
o'tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi	ob'ektiv baholashning qiyinligi
muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi	o'qituvchining o'zidan ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmasiga ega bo'lishining talab etilishi
o'z-o'zini va boshqalarni baholash ko'nikmasining shakllanishi	ijodiy shovqin bo'lishi
mustaqil fikrlash	qaytar aloqaning ta'minlanmasligi
<b>XULOSA</b>	

**T-sxema ko'rinishida vazifa**

<b>Ha</b>	<b>Fikr-mulohazalar</b>	<b>Yo'q</b>

**Sana va voqealarni to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.**

**Sanalar –**

**Tarixiy voqealar –**

<b>Yil,sana</b>	<b>Sodirbo'lganvoqelik</b>

**“Venn diagrammasi” strategiyasi**

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)larda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Strategiya tinglovchi (tinglovchi)lar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.





Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – biror narsani birga bajarish emas, balki hamkorlikda o'qish, o'rganishdir!

Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi:

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi. Bu ko'nikmalar hamkorlikda o'qiyotganlarda bir-biri bilan raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan. Xattoki, hamkorlikda bajarilgan yozma ishlar chuqur mazmunga egaligi bilan farqlanadi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari betakror g'oyalarni ko'proq ishlab chiqadi, turli maqsadlarga erishishda va dars jarayonida paydo bo'lgan har xil o'quv masalalarining yangi yechimlarini topishda ijodiy qobiliyatlar rivojlanib boradi.

3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi. Bugun guruh bajargan topshiriqni ertaga har tinglovchi mustaqil bajara olishi mumkin.

4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi. Hamkorlik bilimlarga ko'proq qiziqish uchun ham sharoitlar yaratadi. Mashg'ulot o'tkazish usuli qanchalik takomillashgan bo'lsa, tinglovchilarning o'rganilayotgan masalaga qiziqishi va faolli ortib boradi.

5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarflanadi. Hamkorlikda o'qiyotganlar topshiriqlarni bajarish uchun raqobat qilayotgan yoki individual o'qiyotganlarga nisbatan ko'proq vaqt sarflaydilar.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy afzalliklari:

- hamkorlikda o'qiyotgan tinglovchilar bir-birining muvaffaqiyatiga ko'maklashadi;

- yordam va madad beradilar va yordamni qabul qiladilar, gap faqat o'qish to'g'risida emas, balki insoniy, do'stona munosabat to'g'risida ketayapti;

- axborot va “moddiy resurslar”, ya'ni topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar bilan almashadi;

- o'rtoqlari bergan ma'lumotlarni o'zlashtiradi va qo'llashga harakat qiladilar. Og'zaki tushuntirishlar, axborotni o'ylab ko'rish va umumlashtirish, o'z bilimlari va ko'nikmalarini boshqalarga uzatish – bularning hammasi bilimlarni tartibga solish, ularni yaxshiroq anglab o'zlashtirish va umumiy maqsadga erishishga shaxsiy ulushini qo'shishga olib keladi;

- tinglovchilar bir-biri bilan muzokara olib borishga va dalillar keltirishga o'rganadi. Intellektual maydondagi ziddiklar qiziquvchanlikni rivojlantiradi, bilimlarni o'zlashtirish va ularni qayta anglash, o'rganilayotgan muammoga chuqurroq kirishishga undaydi hamda boshqa ko'p foydali sifat va ko'nikmalarni shakllantiradi;



- tinglovchilar yaxshiroq o'qishga intilishda bir-biriga ko'maklashadi. O'qishda o'rtoqlariga yordam berayotgan tinglovchi o'zi ham sezilarli darajada yaxshiroq o'qiydi;

- bir-biriga ta'sir etadi. Hamkorlikda o'qiyotgan guruh a'zolari o'rtoqlariga ta'sir etishning har qanday imkoniyatidan foydalanadilar va o'z navbatida ta'sir uchun ochiqlar;

- aniq ifodolangan motivatsiyaga ega. Bilimlarni o'zlashtirishga intilish umumiy maqsadga erishishga qaratilgan hamkorlikdagi mehnat tufayli kuchayadi;

- o'zaro ishonch sharoitini yaratadi va talablarni yuqori darajada ushlab turadi. Guruh a'zolari o'z o'rtoqlariga ishonadilar va o'zlarini o'rtoqlari ishonchini qozonadigan tarzda tutadilar, bu katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoitlar yaratadi. O'zaro ishonch – har birining yuqori yutuqlari uchun yaxshi asos.

Hamkorlikdagi o'qish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag'bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ish bahosi (umumiy natijaga erishish uchun barcha guruh a'zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig'indisidan tashkil topgan bitta baho oladi, ya'ni guruh (komanda) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog'liq;

- har birining o'z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a'zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas'uliyati;

- hamkorlikdagi faoliyat: guruhiy muzokara, hamkorlik, o'zaro yordam berish kabi o'zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;

- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o'qiyotgan o'z shaxsiy yutug'ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o'qishga berilgan bo'lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

### **Guruhda ishlash qoidalari:**

Har kim o'z hamkasblari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;

Har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;

Har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;

Har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;

Har kim guruh ishini natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.

- Boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!

- Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

### **Guruhda topshiriqni bajarish yo'riqnomasi:**

1. Guruh liderini saylang.

2. Topshiriq bilan tanishing va uni qanday qilib bajarishingizni muhokama qiling.

3. Topshiriqni bajaring.



4. Taqdimotga tayyorlaning.
5. Taqdimot o'tkazing.
6. Guruh ishini baholang.

#### 1-bosqich

Guruh ish joyini tayyorlash – stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda ta'lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olsun, har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak, zarur o'quv qo'llanmalar barchaga yetarli bo'lishi kerak.

#### 2-Asosiy bosqich

1. Ta'lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash – tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo'li asosida ta'lim oluvchilarni guruhlarga bo'ladi.

2. O'quv topshiriqlarini tarqatish – muammoli vaziyatni taklif qiladi, ta'lim oluvchilar bilan birgalikda uni echish yo'li va tartibini muhokama qiladi, guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma'lum qiladi. Har biri va butun guruhning natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.

3. O'quv topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'riqnomani tushuntirish. Guruhlar bo'yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda qanday qo'shimcha materiallaridan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi.

Doskada guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani yozadi yoki tarqatadi.

4. Ta'lim oluvchilar bilan qaytar aloqani amalga oshirish Ta'lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo'yicha yo'riqnomani muhokama qiladi;hammalari uni tushunganlariga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o'quv topshiriqni bajarish jarayonini tashkil etish – o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha ishni boshlanishi haqida e'lon qiladi; Guruh ishini nazorat qiladi. Guruh ishini rejalashtirish, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlash, vazifani bajarish bo'yicha yakka tartibda ishlash, yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish, guruh uchun umumiy yechimni ifodalash, guruh ishi natijalarini taqdimotini tayyorlash, aniq topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan alohida bo'lib ishlashga, ko'nikmalarni shakllantirishga e'tiborini qaratadi. Ish borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, ayrim aniq, va samimiy tanbeh qiladi.

6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish – bajarilgan ish natijalari to'g'risida ma'lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezonini va ko'rsatkichlarini eslatadi.

#### 3-Nazorat –yakuniy bosqichi

Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi: guruhning har bir ishtirokchisi bilan gaplashadi; Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

#### **Hamkorlikda o'qitishning samaradorligi**

1. Axborotga tanqidiy yondashuv va o'z nuqtai nazarini dalillar bilan asoslashni shakllantiradi.

2. Ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.



3. Bir vaziyatda olingan bilimlar boshqa vaziyatda qo'llanishiga ko'maklashadi.
4. Dars mazmuniga ijobiy yondashuv shakllantiriladi.
5. Topshiriqlarni bajarish uchun ko'proq vaqt sarfini talab etadi.



### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### **1-mavzu. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti, ob'ekti, tamoyillari, maqsad va vazifalari. Ta'limda alohida ehtiyoj bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi.**

##### ***1. Inklyuziv ta'lim kursining predmeti***

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi tusiqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iktisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar ham o'z tumanlaridagi umumta'lim maktablarida oddiy sinflarda, yoshlariga muvofiq bilim olish uchun kerak bo'lgan yordamni olganlari va maktab hayotidagi barcha jabhalarda ishtirok etishlari hamda o'zhissalarini qo'shishlarini anglatadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga – ta'limda asosiy ehtiyojga muhtoj bo'lgan va bo'lmaganlarga ham ijobiy tarzda tarbiyaviy va ijtimoiy ta'sir qiladi.

Barcha imkoniyati cheklangan bolalarni hayotni yaxshi boshlashi va inklyuziv ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlanib va yordam olib hayot kechirishi.

Inklyuziv ta'limni amalietga joriy qilishda va maqsad-vazifalari, ta'limni tashkil etish usullarini ommaga tushuntirishda hali qator muammolar, tusiqlar ham mavjud.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta'lim xar xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaxolangki ular uqitilmasaham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o'qitilish jarayonida turli ehtiyojlarga ega individum ekanliklarini anglaydilar.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:


- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning



ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- ukuvchilarning ta'limdagi tenglik xukukini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

### 2. Inklyuziv ta'lim kursining ob'ekti



### 3. Inklyuziv ta'limga kiritishning asosiy tamoyillari

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.



Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

### 2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

### 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

"Bog'lanish"-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

### 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini



beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

### 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi taalab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

### 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

### 7). Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.


Inklyuziv ta'lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

- Maxsus ta'lim tamoyillari:
- Korreksion yo'naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta'lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixologo pedagogik) yondoshish;
- Nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy\psixologik jihatdan korreksiyalash;
- Umumiy o'rta ma'lumot berish, kasbga yunaltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;
- Differensial tabaqalashtirish va oloxida yondoshish;
- Ta'limning uzliksizligini ta'minlash.





#### 4. Inklyuziv ta'limning xukukiy asoslari



#### **Inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi huquqiy asoslari.**

Yuqorida keltirilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limning joriy etilishi uchun asos bo'lib



hisoblanadi. Jumladan; “Ta’lim hamma uchun” dasturining bajarilishi, O‘zbekistonda ta’lim olish huquqining qonunchilik asosini:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil; 41-modda)
- “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash to‘g‘risidagi” qonun (19, 27-moddalar)
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (1997 yil, 22, 23-moddalar)
- “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun (2008 yil; ta’lim olishdagi teng imkoniyatlar va alohida kafolatlari, 28, 29-moddalar)
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (o‘quvchilarni qobiliyat va imkoniyatlariga muvofiq o‘qitishga differension yondashuv)
- “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (4.2-modda), “Yoshlar yili” Davlat dasturi.
- “Sog‘lom avlod” davlat dasturi (2000 yil)
- “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi (2007 yil)
- “Barkamol avlod yili” davlat dasturi (2010 yil) va boshqalar

Inklyuziv ta’limning barqarorligini ta’minlash maqsadida “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririga imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv guruh va sinflarning tashkil qilinishini tartibga soluvchi modda kiritilgan.

O‘zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni rivojlantirish bo‘yicha siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasining muhim omili sifatida tan olinishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida barcha strategik kuchlar, davlat va nodavlat tuzilmalar, keng jamoatchilikning jisplashishi;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’limning hamma uchun ochiqligi, ta’lim tizimining o‘quvchilarning rivojlanish salohiyatlari, o‘ziga hos xususiyatlari hamda ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta’limga integratsiyalash maqsadida ta’lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta’lim muassasalari uchun maxsus o‘quv rejalari, o‘quv-uslubiy komplekslar ishlab chiqish;
- o‘quvchilarda tevarak-atrofdagilar, tengdoshlari bilan o‘zaro ijobiy munosabatlarning o‘rnatilishi, atrofdagi kishilarda kommunikabellik va bag‘rikenglikni rivojlantirish;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni ularning ehtiyojlari va imkoniyatlariga qaratilgan sifatli ta’lim olishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi;



O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

- bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;
- o'ziga xos ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- inklyuziv ta'lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirish;
- uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash;

Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;
- bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;
- O'zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;
- mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini yaratish;
- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun o'quv metodik majmualar va ommabop adabiyotlarni yaratish;



Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, hoh uyda ta'lim olish bo'lsin – o'qitishning barcha shakllari–ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o'rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o'qitish va ularga mos keladigan ta'lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolaning umumta'lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash
  - umumiy ta'limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya'ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish;
  - ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog'lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta'lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta'minlash;

Bolaning ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi u uchun oddiy va foydali bo'lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta'lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta'lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Shuningdek, ushbu hujjatlar asosida 2003 yilda Respublikamizda “Talim hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi. “Ta'lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YuNESKOning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan. Mazkur rejada O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi –“Ta'lim hamma uchun” Milliy Rejasining konseptual o'zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. YuNESKOning “Ta'lim hamma uchun” loyihasida bayon etilgan mezonlarga muvofiq ta'lim sohasidagi muammolar Rejada alohida quyidagicha yoritilgan.

Umumiy qoidalar.

HMR-THU tayanch tamoyili (shaxs ustuvorligi)ga tayangan bo'lib, har bir go'dak, o'smir va yoshi katta inson o'zining tayanch ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini so'zsiz tan oladiki, ushbu tushuncha eng yuqori va to'la ma'noda qoniqish, yangi dunyoni bilishga o'rganish, harakat qilish boshqalar bilan birgalikda yashash va kun ko'rish imkonini beruvchi ta'lim olish huquqiga egadir. Shuningdek, HMR-THUning maqsadi-har bir insonning iqtidori va imkoniyatlarini ochish, o'qiyotganlar shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan



ta'limni ta'minlashdir, toki odamlar o'z hayotlarini yaxshilab, o'z jamiyatlarini tuza olsinlar”

Bundan tashqari ushbu Rejaning III.9 qismi “Maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitish”, deb nomlangan bo‘lib, unda maxsus ta‘lim tizimining bugungi kundagi barcha jabhalarining ahvoli yoritib o‘tilgan.

Shuningdek, VI. Band ham maxsus ta‘lim xususida bo‘lib unda quyidagicha bayonot qilinadi:

1). Qonunchilik va me‘yoriy huquqiy bazani takomillashtirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi:

a. “Rivojlanishda jismoniy va ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning uzluksiz ta‘limi to‘g‘risidagi Nizom”ni tasdiqlash;

b. “Maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarni xonadonlarda o‘qitish” to‘g‘risida Nizom ishlab chiqish;

c. Maxsus yordamga muhtoj bolalar korreksion ta‘limi davlat standartlarini ishlab chiqish hamda tasdiqlash va boshqalar.

2). Maxsus ta‘lim va tarbiya mazmunini takomillashtirish bandining bosh masalasi inklyuziv ta‘lim tizimidir:

a. bolalar bog‘chalari va maktablarida inklyuziv ta‘lim strategiyasini amalga oshirish. Umumta‘lim maktab o‘qituvchilari bilan maxsus maktab o‘qituvchilarining hamkorlikda ishlashiga erishish;

b. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda inklyuziv ta‘limni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy vositalarni harakatlantiruvchi mexanizmlarini asoslash va qonuniy tasdiqlashni ko‘zda tutish maqsadga muvofiq.

c. imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning skrining holatini aniqlash. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumta‘lim maktablariga jalb etishda ulardagi nuqsonlarning turi va darajasi, shu hududda sharoitlardan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Tashxis markazlari xodimlari ish faoliyatiga bog‘cha va maktablarga inklyuziv ta‘lim strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini kiritish kabilar.

IX. yo‘nalishning IV. bandi inklyuziv ta‘lim tizimini o‘quv uslubiy tomondan takomillashtirish xususida bo‘lib, unda quyidagilar bayon etilgan:

a. oddiy sinflarda maxsus ehtiyojli bolalarni o‘qitish rejalari, baholash va sinfdan sinfga o‘tkazish tizimini soddalashtirish;

b. maktablarning darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, dasturlarga ehtiyojini aniqlab, mazkur adabiyotlarni yetkazib berish, darsliklar mazmunini takomillashtirish (2003-2005 yillar);

g. inklyuziv maktab o‘qituvchilari va o‘quv rejalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qayta ko‘rib chiqish, ta‘lim standarti, shuningdek maxsus ehtiyojlari mavjud bolalarning oddiy sinflarda bilim olishlarini nazarda tutadigan ixcham va o‘zgaruvchan rejalar tuzish (2005-2010);

d. inklyuziv maktablar o‘quvchilari va ota-onalar uchun uslubiy qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun o‘quv materiallari tayyorlash va ta‘minlash.



Tahlil natijasi shuni ko'rsatdiki, "Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasi har tomonlama mukammal tuzilgan. Reja dasturning V bandi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish" deb nomlanadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish yuqori malakali kadrlarsiz samarali kechmaydi. Jumladan, dasturda "Umumiy ta'lim muassasalari pedagoglarini inklyuziv ta'lim bo'yicha qayta tayyorlash. Barcha gumanitar o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'lim asoslari bo'yicha kurs kiritish (2003-2005)" kabi masalalar o'rin olgan.

"Ta'lim hamma uchun" Milliy dastur rejasida yuqoridagilardan tashqari inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb etishda qonunchilik va me'yoriy bazani takomillashtirish, inklyuziv ta'limni joriy etishda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish zaruriyati va boshqa masalalar ham qayd etilgan. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalash hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga ega. Psixologo - Tibbiy -pedagogik komissiyaning tavsiyasi bilan jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning otionalari o'z xohish istagiga ko'ra hamda bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim (umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan) muassasasi turini tanlash huquqiga ega.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarga o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishda qonun hujjatlari bilan imtiyozlar belgilanishi mumkin, deb belgilab berilgan. Xulolsa qilib aytganda yuqorida keltirilgan barcha me'yoriy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni joriy qilishning huquqiy asoslari yaratilgan.

Inklyuziv ta'lim kursining vazifalari

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi.



Bola, u qanday xolatda va qanday imkoniyatga ega bulishidan qat'iy nazar xar doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki aloxida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tugri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «nogiron bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «xarakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar mkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol kiladi. Ota-onalarga xam salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar me'yorda rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning xukuklarini ximoya kilish, ularga ijobiy munosabatda bo'lish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun xam taxkirlashlarga yul kuymaslik talab etiladi

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Inklyuziv ta'lim deganda nimani tushunasiz.
2. Inklyuziv ta'lim maqsadi nimadan iborat.
3. Inklyuziv ta'lim vazifalari nimadan iborat.
4. Inklyuziv ta'lim ta'moyillarini yoritng.

#### **Adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.
2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Ture Yonsson. . Inklyuziv ta'lim. Toshkent -2003.

**2-mavzu. Imkoniyati cheklangan bolalar turlari va ularni inklyuziv ta'limga jalb etish. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablari.**

#### **REJA:**

1. *Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar.*
2. *RNB bolalar turlari.*
3. *Inklyuziv ta'limga bo'lgan extiyojlarni keltirib chiqaruvchi sabablar.*

**Tayanch tushunchalar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksiya.



**Inklyuziya** barcha o'quvchilarni o'zaro hamkorligini qo'llovchi o'quvchilar hamjamiyatini ichida individual farqlarni o'rganish va hurmat qilishga yunaltilgan. (Djekson, Rindek va Billingsli,2000). Nogironligi bor odamlarga yo'naltirilganligiga qaramasdan inklyuziya butun ta'lim tizimini o'zgartirishga qaratilgan. Ta'lim tizimi hamma o'quvchilarning kuchli tomonlari, tajribalariga moslashgan bo'lishi kerak. Inklyuziv dasturlar hamma o'quvchilarga jamiyatda yutuqlarga erishishda yordam beradi, ularni qiziqtiruvchi, moslashgan o'quv rejaslariga kirishni taklif etadi(Fisher va Frey, 2001; Rouch, Selisbyuri va Makgregor, 2002). Bunga erishish uchun pedagoglar barcha o'quvchilarga umumiy o'quv rejasiga asoslangan individuallashtirilgan kutilayotgan natijalarni aniqlaydilar (Metlok, Fielder va Volsh,2001) hamda moslashtirilgan ta'lim texnikasini taklif qilib, bu orqali o'quvchilarga muvaffaqiyatli ta'lim olishlari uchun invididual moslashishga yordam beradilar.

### Inklyuziya va meynstrimingni taqqoslash

Inklyuziya	Meystiming
<b>Kim</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Hamma o'quvchilar umumiy ta'lim</li> </ul> Tizimidagi sinflarda o'qish huquqiga ega.	<ul style="list-style-type: none"> <li>Pedagog tomonidan aniqlanuvchi tayyorgarlik darajasi muvofiq bo'lgan hamda pedagog tomonidan tanlangan o'quvchilargina umum talim tizimidagi sinflarda o'qish huquqiga ega</li> </ul>
<b>Nima</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Umumiy o'quv rejasiga to'liq kirish huquqi (Ta'lim dasturlari buyicha), shuningdek hamma ta'limiy va ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish huquqi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Umumiy o'quv rejasiga, ta'limiy va ijtimoiy tadbirlarga tanlangan kirish.</li> </ul>
<b>Qaerda va qachon</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Butun kun davomida umumiy o'quv ta'limi sinflarida o'qish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Umumiy ta'lim tizimlari sinflarida qisman yoki to'la o'qish.</li> </ul>
<b>Qanday</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Hizmatlarning to'liq spektri umumiy ta'lim tizimi muhitida mujassam qilingan (masalan guruhlarda ta'lim).</li> <li>Umumiy va maxsus ta'lim birlashtirilgan ta'lim tizimiga mujassam etilgan.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Hizmatlarning to'liq spektri umumiy ta'lim sinfida ham va undan tashqarida ham beriladi (masalan resurs xonasida).</li> <li>Umumiy va maxsus ta'lim ta'limning alohida tizimlari sifatida saqlanadi.</li> </ul>
<b>Nima uchun</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>O'quvchilarni akademik, ijtimoiy hissiyotli, xulqiy va jismoniy rivojlantirish uchun va ularni</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>O'quvchilarni akademik, ijtimoiy-xissiy, xulqiy va jismoniy rivojlanishi hamda ularning jamiyatga</li> </ul>





jamiyatga o'z xissalarini qo'shishlariga tayyorlashga rag'batlantirish uchun	o'z xissalarini rag'batlantirish uchun	qo'shishlarini
--	---	----------------

**Inklyuziv ta'limga jalb etiladigan bolalar:**

- Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- Harakat muaozanati buzilgan;
- O'z-o'ziga xizmat qila oladigan yengil darajasidagi akli zaif bolalar
- Nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi) bolalar:

- Zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar:
- Zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo'lgan bolalar:
- Ko'zi ojiz (brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar:
- Zaif ko'ruvchi ko'rish qobiliyati (04darajagacha) bo'lgan bolalar:
- Kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishni egallagan) bolalar va o'smirlar.

**Inklyuziv ta'lim metodik yordam turi, turli xil shakllarda bo'lib, ular kuyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- sinf o'qituvchisiga maslaxatva yordam berish;
- maxsus o'qitish qo'llanmalari va yordamchi materiallar bilan ta'minlash;
- ota – onalar, ko'ngillilar yoki katta o'qituvchilar tomonidan mavjud bo'lgan yordamlarni ta'minlash;
- o'quv reja dars jadvali, baxolash mezolariga moslashtirish va o'zgarishlar bilan tanishtirish;
- o'qituvchilar bilim va malakalarini oshirish uchun sharoit yaratish;
- faol qo'llab – quvvatlovchi raxbar vashu kabilarni o'z imkoniyati cheklanganiga olgan ijobiy maktab muxitini tashkil etishva ta'lim jarayonida do'stona munosabatni shakllantirish;
- ma'muriyatga bolalarning aniqlash va baxolashda yordam ko'rsatish;
- ijtimoiy psixologik va sog'liqni saqlash xizmatlarini muvofiqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Inklyuziv ta'limda alohida ehtiyojli bolalarga ta'lim tarbiya berish bolaning nuqson turiga ko'ra sinfni va dars jarayonini moslashtirishni talab etadi.

**Inklyuziv ta'limtizimida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi:**

• Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatdan do'stona munosabat ruxiy shakllanadi.

• Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga olinadi, maxsus korreksion ishlarni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi (maxsus jixozlangan korreksion xonasi, maxsus texnik vositalar).



- Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumtalim maktablarida tayyorlov guruh va birinchi sinflarda 35 daqiqa, yuqori sinflarda 45 daqiqadan darslar olib boriladi.

- Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilimlari ularning shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslangan holda belgilangan tartibda baxolanadi.

- Ta'lim jarayonida zamonaviy umumdidaktik tamoyillar bilan bir qatorda maxsus tamoyillar ham e'tiborga olinadi.

- Korreksion ta'lim o'quvchilarning ehtiyojlariga ko'ra tabaqalashtirilgan holda tashkil etiladi.

- Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabiga o'quvchilar ota-onalarning arizasi hamda "psixologo-pedagogik komissiya"lar xulosalari asosida qabul qilinadi va ta'lim muassasalarining raxbarlarining buyrug'lari bilan tasdiqlanadi.

Inklyuziv ta'lim amalga oshirayotgan umumta'lim maktabdagi sinflarda integratsiya qilingan o'quvchilar soni 3-4 nafardan oshirilmaydi hamda o'quvchilarning umumiy soni 25 nafargacha belgilanadi

**Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish.** O'qituvchiko'rishida nuqsoni bo'lgan boladan (agarda u zaif ko'ruvchi bo'lsa) sinf taxtasini ko'rish uchun eng qulay joyga surab uni o'sha joyga o'tkazishi lozim;

- Agar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolaning ko'zlari yorug'likka sezgir bo'lsa, uni deraza yoniga o'tkazaslik kerak. Shuning uchun xam bolaning ko'zlarini yorug'likdan saqlash uchun karton to'sikni ishlatish mumkin;

- Sindagi eng axloqiy va olijanob o'quvchilarni aniqlab, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolaga «yo'l boshlovchi» o'quvchi kilib tayinlansa yukori natijaga erishish mumkin;

- O'qituvchi sinf taxtasiga yozilgan ma'lumotlarni baland ovozda o'qishi talab etiladi;

- Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola ma'lumotlarni eshitish va taktil sezgilari asosida egalaydilar. Shuning uchun xam ularga buyumlarni ushlab ko'rish imkoniyatini berish kerak;

- O'qituvchi sinfiy munozaralarda kim gapirayotganligini ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola bilishi uchun xar bir o'quvchining ismini aytib turishi kerak.

**Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish**

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'qituvchi va doskaga yakinrok (3 metrdan oshmasligi),sindagilarning barchasini ko'ra oladigan joyga utkazish ;

2. O'qituvchi dars jarayonida faqt sinfga o'quvchilarga karab dars o'tishi, eshitmaydigan o'quvchilarni o'ziga qaratib dars boshlashi; O'qituvchi mavzuni tushintirayotgan paytda kitob yoki boshka buyumlar bilan yuzini bekitmasligi, doskadagi ma'lumotlar xakida tushuncha berayotagnda esa orqa tomoni bilan turib qolmasligi shart. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligi



o'quv materialini, tushuntirish, murojaat va h.o.larni labdan o'qish asosida qabul qila oladilar;

3. Inklyuziv sinf xonasi yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak. Chunki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qituvchi va o'quvchilarning yuzini, qo'llarini yoki labini yaxshi ko'rishi kerak;

4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani boshqa bolalarning labini ko'ra olishi uchun partalarni shunga muvofiq tarzda joylashtirish lozim;

5. Doimiy ravishda sinfda shovqin ko'tarmasligi talab etiladi. Inklyuziv sinf xonasi maktabning tayanch va sokin tarafida bo'lishi talab etiladi;

6. O'qituvchi aniq talaffuz va baland ovozda lekin bakirmasdan gapirishi tavsiya etiladi.

### **Tayanch xarakter a'zolarida inklyuziv ta'limda muammolari bo'lgan bolalar sinflarni va dars jarayonini moslashtirish**

Yengil darajagi serebral falaj bolani umumta'lim sinflarda o'qitish uchun ko'p narsa talab etilmaydi. Ammo og'ir darajadagi serebral falaj bolani umumta'lim tizimida o'qitish sinfni moslashtirish bir o'z murakkablik. Buning uchun sinfni moslashtirish kuydagi imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin:

1. Serebral falaj bola o'tirganda boshi va gavdasini to'g'ri tutish uchun masus o'rindiqlar;

2. Bolaning bo'yini kerakli darajada tuta olishi uchun maxsus o'rindiqlar;

3. O'qituvchi va tengdoshlar bolani tushuna olishlari uchun mulokat taxtalari (masalan, rasm yoki turli ramziy belgilardan tashkil topgan taxtalar);

4. Bola sinfda xarakterlana olishi uchun sinf xonasining devorlariga yordamchi vositalar qo'yish;

5. Sinf xona partalari serebral falaj bolaning aravachasi uchun moslashtirish;

6. Agar bolaning nutqida og'ir nuqsonlar bo'lsa muloqatning boshqa shakllardan, masalan rasmlar yoki chizilgan razmiy kartochkalardan foydalanish mumkin. Ular sinf taxtasiga joylashtirilsa, bola o'z fikrini bu vositalar orqali ifoda etadi;

7. Bolani savollar berishga undang, lekin unga o'z nutqi bilan yoki boshqa vositalar orqali javob berishga fursat bering;

8. Kompleks yordam (tibbiyot xodimi logoped, massajist yordami) turini tashkil etish;

9. Tengdoshlaridan bola bilan o'zaro muloqat kilishlarini so'rang, chunki bolalar doimo bir birlari bilan muloqat kilish yo'lini topadilar;

Qo'l, oyoqlarni boshqara olishda qiynalgan bolalar yozishda juda ko'p qiyinchiliklarga uchraydilar. Shuning uchun ularning yozishlarga qo'shimcha vaqt ajratish lozim yoki ularga ma'lumotning nusxasi berilishi yoki boshqa o'quvchi ularga yozib berishi mumkin.

### **Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish**



1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar diqqatini tarqoqligini xisobga olib partada ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak;
2. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tez charchab qolishini xisobga olgan holda, ular xarakterda bo'lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish («daftarlarni yig'», «doskani tozala» kabi);
3. Xar bir darsda jismoniy daqiqa o'tkazishni unutmashlik;
4. Sinfda lider qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchini aniqlab, «sinf boshqaruvchisi» (imkoniyati cheklangangina o'qituvchi) etib tayinlash (bu ukuvdan o'qituvchi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola bilan ishlayotganda ko'proq foydalanadi);
5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni sinfdagi eng a'lochi o'quvchi bilan birga o'tkazish;
6. Darsda asosiy ko'rgazmallikka tayinlash;
7. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo'lib berish;
8. Bolani rag'batlantirishni unutmashlik;
9. Usullarning xilma – xilligidan doimiy ravishda foydalanish;
10. O'yin metodlariga maksimal darajada tayanish;
11. Bola topshiriqni bajarayotganda unga qo'shimcha yoki amaliy ko'rsatma xam berish;
12. Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning xam xissasi qo'shiladigan topshiriqlar berish;
13. Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolani nazorat ostiga olish.

### **Sinf va guruxlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish**

Bolalar ongida irqchilik, nogironlik xamda imkoniyatlar kengligi xususida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda juda xam muhim ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar xakorati va masxaralanishiga duchor bo'lmokdalar. Bundan xam ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulk-atvorni ayrim o'qituvchilarning e'tiborsiz qoldirayotganligidir. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun xam barcha maktablarda xamma bolalar uchun teng xuquqli, sevimli, do'stona iliq munosabatdagi muxitni yaratish lozim. Maktabda irqchilikni, nogironlik ustidan kulishni koralanishi va o'rtasidagi teng xukuklilik tushunchasini shakllantirish kerak. Biz quyida bolalar o'rtasida teng xuquqlikni tushunchalarni shakllantirish buyimkoniyati cheklangana tavsiyalar berildi:

-Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o'z xayotlari va xis tuyg'ularini muxokama qila oladigan o'zoro qo'llab – quvvatlovchi va xamjixatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim;

-O'quvchilar ongiga nogironlik – aloxidalik emas, balki kamchilikni majudligi natijasida imkoniyatlar chegaralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qo'rqish, jirkanish xislarini yo'kotishga erishish talab etiladi.



Pedagoglar ayrim xolatlarda stereotiplarni ko'llashdan qochishlari va tashabbuslari qo'llashdan keyin xam bolalar oldida sharxlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo'yish, masxara qilish, salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo'l qo'ymasliklari talab etiladi.

Zarur bo'lgan xolatlarda imkoniyati cheklangan bolalarda ayrim o'quvchilar tamonidan bildiralayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muxokama qilish o'rinli xisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun oxirgacha ko'rashish lozim.

Xar bir muxokama bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga salishtirib, kayd etib, takidlab borish muhimdir. O'quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o'tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao.

O'qituvchilar ishlarini va ularning yutuklarini barcha soxalarida maktab va maktabdan tashkari ishlarda namoyish kilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini xam kullash juda samara beradi.

Kitob, plakatlar va dasturlarni kullayotib, shunga ishonch xosil kilish kerakki,ular inklyuziv ta'limga mos kelishi kerak. Maktablar ochik bulishi, o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar mulokat kila bilishi kerak.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Inklyuziv ta'limga jalb etiladigan bolalarga ta'rif bering.
2. Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishini izoxlang.
3. Sinf va guruxlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish xaqida tushuncha bering.

#### **Adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.

**3-mavzu. Dunyo miqyosida va O'zbekistonda alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar.**



## REJA

1. Inklyuziv va Integratsiya mashg'ulotlari.
2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.
3. Aloxida yordamga muxtoj bolalarni ma'naviy-estetik tarbiyalash

**Tayanch tushunchalar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksiya.

1991 yilda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan, ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash to'g'risidagi qonun va qarorlarning qabul qilinishi maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini isloh etishning dastlabki bosqichi hisoblandi. Respublikamizda inklyuziv ta'limni joriy etishda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» XTV tomonidan tasdiqlangan «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat nizomi (2005 yil), Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar ta'lim haqidagi muvaqqat nizom va rivojlangan horijiy davlatlarning ish uslublarini o'rganishga asoslanadi.

1996 yilning noyabr oyida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar» mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil qilingan edi. Mazkur anjuman YuNESKO, YuNISEF (BMT ning bolalar jamg'armasi), butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001 yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi va qator dasturlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2004 yilning iyun oyida «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tashabbusi asosida Toshkent shahrida «Etim bolalarning ijtimoiy muhofazasi» mavzusida ilk bor xalqaro anjuman tashkil etildi. Ushbu anjuman doirasida nogiron bolalar uchun ta'lim dasturlari muhokama etildi. 2005 yilning iyun oyida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tomonidan «Ijtimoiy nochor bo'lgan bolalarga ko'mak berishning samarali shakl va usullari» nomli xalqaro forum o'tkazildi. Ushbu forum tavsiyanomalari asosida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda YuNESKO tashkiloti rahnamoligida Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi madaniy markazga (Tokio, Yaponiya) maxsus loyiha taqdim etilgan edi. Ushbu YuNESKO markazi tomonidan «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha



qo'llab-quvvatlandi. Ushbu inklyuziv ta'lim loyihasining asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va ularning qobiliyatlarini barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Ta'lim tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Ota-onalar uchun oilada va mahallada profilaktika hamda reabilitatsiya ishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ota-onalari nogiron bolalarni tarbiyalash va ularning aqliy rivojlanishlarini rag'batlantirish asosida pedagogik usullar, ularning mustaqil bo'lishlari uchun tengdosh sog'lom bolalar bilan muloqoti asosida o'qitiladilar. Loyiha Respublika ta'lim markazi qoshidagi Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tomonidan Toshkent Davlat pedagogika universitetining «Defektologiya» fakulteti, YuNESKO ning O'zbekistondagi vakolatxonasi va YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi, boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilib kelinmoqda.

Respublika ta'lim markazi YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikdagi loyiha rejasiga binoan Inklyuziv ta'lim resurs markazi va integratsion ta'lim tizimi joriy qilingan muassasalarga uslubiy va metodik jihatdan yordam beradi, bu ta'lim tizimini takomillashtirish uchun xalqaro xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish Respublikamizning ayrim viloyatlarida, jumladan Farg'ona, Andijon, Xorazm, Toshkent viloyatida tajriba sinov jarayoni boshlangan bo'lib, bu ishlarni amalga oshirishda nodavlat jamoalar, xorijiy tashkilotlar tashabbus ko'rsatmoqda. Halkar YuNESKO tashkiloti va Xalk, Ta'lim Vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalarida inklyuziv-korreksion ta'limning tayanch punktlari tashkil etildi. Ular alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limi bilan shug'illanuvchi, "Inklyuziv ta'lim" dasturini amalga oshiruvchi yagona punktlar hisoblanadi.

Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash "Ziyo" markazi umumta'lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarni jalb etish YuNESKO loyihasi asosida 2004 yil o'z faoliyatini boshladi. Sinov - tajriba maydonlari uchun Farg'ona viloyati Qo'qon va Marg'ilon shahridagi 4,5-sonli aqli zaif bolalar, 9-sonli zaif ko'ruvchi bolalar maxsus maktab internatlarida, 64-sonli falaj bolalar bog'cha majmuasi, 39-sonli nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bog'chasi, 1,9-sonli umumta'lim maktablari, Andijon viloyatidagi 5, 31 - sonli umumta'lim maktablari tanlandi.

Inklyuziv ta'lim borasida tajriba-sinov ishlari 2004 yil iyun oyidan boshlangan. Bu ishga ota-onalar, o'qituvchilar va mahalla qo'mitasi a'zolari jalb etildi.

Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish loyihasi Xorazm viloyatida ham izchil tarzda olib borilmoqda. Bu ishda Xorazm viloyatining bir qator hududlarida halqaro YuNISEF, "Opereyshen Mersi" nodavlat tashkilotlari va RTM Maxsus ta'lim bo'limi bilan hamkorlikda tuzilgan rejasiga asosan amalga oshirib kelinmoqda. Inklyuziv ta'limning loyihasi 1999 yildan boshlangan bo'lib, hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.



Respublika ta'lim markazi, halqaro "Opereyshen Mersi" tashkiloti bilan hamkorlikda, shuningdek YuNESKOning Xorazm viloyatidagi "Inklyuziv ta'lim" tayanch muassasalarida 5 ta integratsiya sinflari va 10 ta tayanch harakat a'zolari shikastlangan bolalar uchun yakka tartibda "inklyuziv ta'lim" tashkil etildi.

2002—2005 chi yillarga kelib 10 ta umumta'lim maktablarida 50 nafardan ziyod bola inklyuziv sinflarda o'qish uchun jalb qilindi. Ularga resurs pedagog biriktirildi. Xiva shahrida pedagoglar, ota-onalar, meditsina hodimlari ishtirokida seminar - treninglar tashkil etildi.

Olib borilgan ishlar natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta'limiga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o'zgardi, ota-onalarning bolalarga e'tibori ortdi, ta'lim olishlari uchun qiziqqa boshladilar. Eng ahamiyatlisi bolalarning tenqurlari kabi ta'lim olishiga erishildi.

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi "Imkon" markazida 80 dan ortiq, rivojlanishida turli nuqsonli bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limga jalb etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida imkoniyati cheklangan, ta'limdan chetda qolgan nogiron bolalarni aniqlash va ularni ta'limga jalb qilish maqsadida oilalarga, tashxis markazlariga, XTBlarda bolalarni ta'lim tizimiga kiritish masalalari va ular uchun shart-sharoitlar yaratishga oid muammolar ustida to'xtalib o'tildi. Umumta'lim pedagoglari va ota onalar uchun trening-seminarlar o'tkazdilar. (2005-2006 yillar)

"Inklyuziv ta'lim orqali bolaga do'stona munosabat o'rnatish" loyihasi asosida quyidagi natijalarga erishildi:

- 300 dan ortiq umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'qitildi;
- 80dan ortiq ota-onalar inklyuziv ta'limning asoslari va nogironlik sabablari xususida ma'lumot va bilimga ega bo'ldilar;
- 3 ta metodik tavsiya ishlab chiqilib, ulardan biri "Inklyuziv ta'lim asosida bolaga do'stona munosabatni shakllantirish" masalalari xususida;
- Seminarda ishtirok etgan 330ta o'qituvchi va joylardagi "Tashxis" markazlari rahbarlari yordami bilan 558 ta ta'limdan chetda qolgan, ya'ni uyda yakka tartibda ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tizimiga kiritildi.

Xalk ta'lim vazirligi va Yunesko tashabbusiga binoan inklyuziv ta'lim markazi tashkil etildi. "Inklyuziv ta'lim resurs markazi Nizomi" tuzilib, unga muvofiq Resurs markaz quyidagi vazifalarni amalga oshiribyu kelmoqda:

- ta'limga jalb etilmagan imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini tashkil etishga ko'maklashish;

- inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash;
- joylardagi resurs markazlarga amaliy-uslubiy yordam ko'rsatish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalariga farzandlarini tarbiyalash, maktabga va ijtimoiy hayotga tayyorlashga oid turli shakldagi tadbirlarni tashkil etish, maslahatlar berish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga ta'lim berish, kasb-hunarga o'rgatish ishlarini amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida





inklyuziv sinflar va guruhlar tashkil etish, ta'limni integratsiya asosida olib borish kabilar.

Inklyuziv ta'lim-bu inson huquqlarini himoyalovchi ta'lim yo'nalishligini, har bir shaxs hayoti davomida inson uchun berilgan omillardan foydalanish huquqiga egaligi xususida o'z qarashlarini bildirdi.

“Ta'lim hamma uchun” Milliy dasturini joriy qilish bosqichlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

“Ta'lim hamma uchun” umummilliy dasturining mohiyatini targ'ibot qilish;

Respublikada imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limini tashkil etish bo'yicha me'yoriy metodik hujjatlarni ishlab chiqish;

- imkoniyati cheklangan bolalarni erta tashxis qilishning zamonaviy usullarini muhokama qilish;

- psixologo-tibbiy-pedagogik komissiya, Tashxis markazlari, psixologik xizmat faoliyati samaradorligini oshirish;

**Sog'liqni saqlash, Mehnat va ijtimoiy muhofaza qilish** vazirligi kabi tashkilotlarning imkoniyati cheklangan bolalarni aniqlash, hisobga olish, davolash, ijtimoiy himoyalash borasidagi faoliyatini jonlantirish;

- imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish, ularni ijtimoiy himoyalash borasidagi davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligini kuchaytirish;

- inklyuziv ta'lim jarayonida uchraydigan to'siqlarni bartaraf etish yo'llari bilan tanishtirish .

Inklyuziv ta'lim tizimini O'zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuot-axborot vositalari orqali targ'ibot-tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni me'yorda rivojlanishdagi bolalar bilan teng xuquqlilik asosida ta'lim - tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

BMT tomonidan **1948** yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da “Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi” ekanligi alohida e'tirof etilgan.

“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi” barcha insonlarning huquq va erkinliklarini kafolatlar ekan, bu Deklaratsiyaning barcha bandlari maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishliligi aniqlandi.

Nogiron shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlash va kafolatlash maqsadida BMT **1975** yilda “Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Deklaratsiyani qabul qildi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: “Nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqi ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadirlarkim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega” (“Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida”gi Deklaratsiya, **3-modda**).



Xuddi shunday bolalarni huquqlarini muxofaza qilish maqsadida BMT **1989** yilda “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ni qabul qildi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalarning huquqlarini hamma joyda himoyalash maqsadida ishlab chiqilgan inson huquqlari borasidagi halqaro shartnoma hisoblanadi. U qariyb butun jahon mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan 191 mamlakat ko‘ngilli tarzda zimmalariga “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” qoidalarini ma‘muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tatbiq etish majburiyatini oldilar.

“Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” kompleks va ko‘p qirrali xarakterda bo‘lib, bu barcha bolalar uchun inson huquqlarining fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy singari jabhalarni ta‘min etadigan yagona Konvensiyadir.

Bu konvensiya qat‘iy faoliyat ko‘rsatadi. Barcha hukumatlarni hamma bolalarning huquqlarini himoya etish uchun sa‘y - harakatlar qabul etishga chaqiradi. Shuningdek, bu Konvensiya yaxlitdir, chunki unda ta‘kidlanishicha, barcha huquqlar muhim, mushtarak, bir-birlariga bog‘liq va tengdir. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” barcha bolalarning huquqlarini himoya qiladi. Mazkur Konvensiyaning **2-moddasida** “Bolalar, ularning ota-onalari, boquvchilarining irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy va boshqa e‘tiqodi, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy ahvoli, sog‘lig‘i, qanday holatda tug‘ilganliklari va boshqa holatlaridan qat‘iy nazar kamsitishlarga mahkum etilmasligi kerak”-deb qat‘iy belgilangan. Demak, bu Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo‘lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo‘lish kafolatlanadi. Shunday ekan, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim olish huquqini ham kafolatlaydi. Aynan **28-modda** “Ta‘lim insonning siyosiy huquqi”, deb nomlangan bo‘lib, unda ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini e‘tirof etadilar, hamda ana shu huquqni teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta - sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang‘ich ta‘limni joriy etadilar,-deyilgan. Ushbu modda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ta‘lim olishlarini, ular uchun ham ta‘limning majburiy ekanligini ko‘rsatib turibdi. “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, “barcha huquqlar barcha bolalarga” tamoyili e‘tirof etilishi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, “Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning 23-bandida maxsus ehtiyojli bolalarning ta‘lim - tarbiyasi xususida qisqa va aniq qilib quyidagicha ta‘kidlangan: “Nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo‘shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta‘lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozim”. Bu qoidadan shu narsa ayon bo‘ladiki, maxsus ehtiyojli bolalar ham jamiyat hayotida to‘liq ishtirok etishi, madaniyatga hamohang bo‘lib o‘sishi, uning boylıklaridan, go‘zalligidan bahra olib jamiyatning rivojiga hissa qo‘shishlarining ahamiyati juda kattadir. Mana shunday imkoniyatlardan foydalanish va joriy etishda maxsus ta‘lim



muassasalarining ta'lim tizimi va mazmuni talabga javob bermaydi. Shuning uchun ham insonparvarlik nuqtai nazaridan jahondagi ko'plab mamlakatlar maxsus-segregatsion ta'lim tizimini inkor eta boshladi.

Buning natijasida esa **1990** yilda Tailandda o'ta muhim Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun " Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilindi. "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasini dunyoning 155ta davlat hukumatlari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlari qabul qildilar. "Ta'lim hamma uchun " Umumjahon Deklaratsiyasi har bir bolaning to'laqonli va mukammal ta'lim olishini kafolatladi.

Ushbu Deklaratsiyada quyidagicha bayonot qabul qilingan: "Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta'limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta'lim-tarbiya olishni talab etadi;

- o'qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanlanadi;
- maktabda to'laqonli korreksion pedagogik yordam tashkil etiladi;
- bolalar to'laqonli qaror kompleks tarzda qabul qilinadi;
- bolaning har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o'quv rejaning asosi sifatida qaraladi;
- inklyuziv maktablarning moddiy ta'minoti yaxshilanadi".

"Ta'lim hamma uchun " maqsadlarini amalga oshirish va maxsus yordamga muhtoj bolalarning to'laqonli mukammal ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida 1994 yilning 7-10 iyun kunlarida Ispaniya davlatining va YuNESKOning yordamida Salamanka shahri (Ispaniya)da ikkinchi yirik Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tganligi aniqlandi. Mazkur Konferensiya "Salamanka Deklaratsiyasi va alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limining kelgusida ijrosini ta'minlash Ramkasi" deb atalib, shu yili "Salamanka bayonoti va ish faoliyat Rejasi" nomi bilan uning ish mazmuni nashr etildi. Bu hujjatda huquqlar bo'yicha bayonotlar mazmunlarini yorituvchi fikrlar bayon etilgan. Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasining asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar o'qishga qabul qilishlari lozim. Mazkur hujjatda ta'kidlanishicha:

"Har bir bola ta'lim olish va o'ziga muvofiq darajada bilimga erishish xuquqiga ega:

- Ta'lim tizimi va ta'limiy dasturlar turli xil xususiyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tuzilib, shu ishga yo'naltirilsin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun oddiy maktablarga borish imkoniyati yaratilsin;

- Maxsus yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash oddiy maktablarning ish faoliyati doirasiga kirar ekan, bu jarayon quyidagi maqsadlarga erishishning eng samarali vositasi bo'la oladi:

- Ajratib qo'yish illatiga qarshi kurash;
- Do'stona insonparvar jamoalarni yaratish, o'z tarkibiga maxsus ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni olgan jamiyatni qurish;



➤ Barcha bolalarning ta'lim olishiga erishish” (Salamanka bayonoti 2-band);

Salamanka Bayonoti va Ish faoliyati rejasida “Ta'lim hamma uchun” shiori ilgari surilmoqda. “Ta'lim hamma uchun” shiori deganda nogiron bo'lgan yoki jamiyat ichida ajratib qo'yilgan guruhlardan kelib chiqqan bolalarning ham tenghuquqlilik asosida ta'lim olishlari tushuniladi.

Ushbu harakat rejasining tahlili shuni ko'rsatadiki, asoslanadigan muhim tamoyili quyidagilardan iborat:

“Maktablar jismoniy, aqliy, ijtimoiy, emotsional, tilidagi yoki boshqa nuqsonlaridan qat'iy nazar hamma bolalarni qabul qilishi kerak. Ularga ruhiy va jismoniy nuqsoni bor bolalar, boshpanasiz bolalar, ko'chmanchi xalqlarga tegishli bo'lgan bolalar, etnik yoki madaniy kamchilikni tashkil etgan oilalarning bolalari kiradi” (Harakat Rejasiga kirish 3-chi band).

- Salamanka Bayonoti va Ish faoliyat Rejasida maxsus ehtiyojli bolalarga umumta'lim tizimi sharoitida inklyuziv ta'lim berish lozimligi alohida ta'kidlanib, har bir bolaning boshqalarnikiga o'xshamagan o'z ehtiyojlari mavjudligi, shuningdek, har bir bola yashash joyiga yaqin bo'lgan maktabga borish huquqiga egaligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Bunday maktablarning asosiy maqsadi barcha bolalarga samarali ta'lim beribgina qolmay, maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan inklyuziv va iliq munosabatli jamiyat yaratib, diskriminatsion o'zgarishlarga barham berishdir.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. O'zbekistonda inklyuziv ta'limning tashkil etilish xaqida gapiring?
2. “Maxsus ta'lim 2000” ga ta'rif bering.
3. Ta'limning individual rejalarini amalga oshirish qanday amalga oshiriladi.

### **Adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. “Maxsus va inklyuziv ta'lim” uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

**4-mavzu. Alohida e'tiborga muxtoj bo'lgan bolalarni umumta'limga uyg'unlashtirish asoslari. Inklyuziv ta'lim, uning komponentlari.**



**REJA:**


- 1. Inklyuziyaning maxsus ta'lim pedagoglariga ta'sir oqibatlari.**
- 2. Nogironligi bo'lgan bolalar oilasining o'ziga xosligi.**
- 3. Maktablarning bajaradigan ishlarini belgilab beruvchi 8 ta bosqich "Transformatsiya tajribasi"**

**Tayanch so'zlar:** inklyuziv dasturlar, nogironlar oilasi, maxsus ta'lim, individual va differensial yondoshuv.

1991 yilda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan, ta'lim olishga muhtoj bo'lgan bolalarni qo'llab quvvatlash to'g'risidagi qonun va qarorlarning qabul qilinishi maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini isloh etishning dastlabki bosqichi hisoblandi. 1996 yilning noyabr oyida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda «Maxsus ta'lim sohasida inklyuziv usullar» mavzusida milliy o'quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo'yicha mintaqaviy anjuman tashkil qilingan edi. Mazkur anjuman YuNESKO, YuNISEF (BMT ning bolalar jamg'armasi), butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar natijasida 2001 yilda O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi qoshida Inklyuziv ta'lim bo'yicha manba markazi tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar ushbu markaz tomonidan bir necha o'quv seminarlari o'tkazildi va qator dasturlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2004 yilning iyun oyida «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tashabbusi asosida Toshkent shahrida «Etim bolalarning ijtimoiy muhofazasi» mavzusida ilk bor xalqaro anjuman tashkil etildi. Ushbu anjuman doirasida nogiron bolalar uchun ta'lim dasturlari muhokama etildi. 2005 yilning iyun oyida Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi va «Sen yolg'iz emassan» Respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tomonidan «Ijtimoiy nochor bo'lgan bolalarga ko'mak berishning samarali shakl va usullari» nomli xalqaro forum o'tkazildi. Ushbu forum tavsiyanomalari asosida YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda YuNESKO tashkiloti rahnamoligida Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi madaniy markazga (Tokio, Yaponiya) maxsus loyiha taqdim etilgan edi. Ushbu YuNESKO markazi tomonidan «O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha bog'cha va o'rta maktablarda tajribaviy guruhlar ochish» nomli loyiha qo'llab-quvvatlandi. Ushbu inklyuziv ta'lim loyihasining asosiy maqsadi nogiron bolalarda turfa xil malakalarni oshirish va



ularning qobiliyatlarini barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Ta'lim tibbiy va ijtimoiy xizmat bilan birgalikda olib boriladi. Ota-onalar uchun oilada va mahallada profilaktika hamda reabilitatsiya ishlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ota-onalari nogiron bolalarni tarbiyalash va ularning aqliy rivojlanishlarini rag'batlantirish asosida pedagogik usullar, ularning mustaqil bo'lishlari uchun tengdosh sog'lom bolalar bilan muloqoti asosida o'qitiladilar. Inklyuziv dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda pedagoglarning hamkorligi muhim omil bo'lib hisoblanganligi sababli, o'tkazilgan tadqiqotlarda o'rta maxsus ta'lim pedagoglarining inklyuziv ta'limga munosabatlari, bu dasturlarni bajarishlari davomidagi kelib chikadigan tajriba va savollari urganildi. Bu tadqiqotlar va ularning natijalari kuyida keltirilgan ko'rsatish asosan o'qituvchilarda inklyuziv ta'limga munosabatlari murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, ularni amaliyotga kirish tajribasiga qarab farqlanadi. Umumiy ta'lim o'qituvchilarining ijobiy tajribalari o'z ichiga o'qitishning samaraliligiga yuqori ishonchni; nogiron o'quvchilarga nisbatan yumshok kungilda qarash; ularning boshqa o'quvchilarga urnak bula olish misollarini tushunish; hamma o'quvchilarning (nogiron va nogiron emaslar) ehtiyojlarini kanoatlantiruvchi malakalarini borligiga ishonch; yangi kasbdoshlar bilan tanishish kabilar.



### **Inklyuziv ta'limni joriy kilish uchun zaruriy chora tadbirlar**

- Inklyuziv ta'limning xukukiy asoslarini yaratish;
- Erta tashxisni yulga kuyish;
- Maxsus extiyojli bolalarga nisbaan jamiyatda ijobiy munosabat uygotish;
- Inklyuziv ta'lim borasida targibot – tashvikot ishlarini kuchaytirish;
- Ota – onalar va xam jamiyatning ishtirokini kuchaytirish;
- O'qitish uchun zarur vosita va asbob uskunalarning mavjudligi;
- Ta'lim muassasalarini aloxida extiyojli bolalar imkoniyatlarini E'tiborga olgan xolda moslashtirish;
- Ta'lim berish usulublarining aloxida extiyojli bolalarga moslashuvligi;
- Kadrlar tayyorlash jarayonida isloxotlar amalga oshirish.



- Inklyuziv ta'limni joriy qilish buyimkoniyati cheklangana xalkaro va milliy tajribalarga asoslangan xolda multi mediya kutubxonalarini tashkil eti shva ularni ommaga targibot qilish.

- Xar bir inklyuziv ta'lim muassasalar tasarufida inklyuziv ta'limni targibot qilish, ukuv metodik majmualar, dasturlar bilan taminlash va joylardagi maxalliy xalk ta'lim organlari bilan uzaro aloka tuzish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtirokidagi jamoaviy kengash tuzish.

**Inklyuziv ta'lim resurs markazining vazifalari:**

- bolalardagi nuqsonlarni erta tashxis qilish va erta korreksion\pedagogik yordamlarini amalga oshirish yo'llarini amalga oshirishga uslubiy\tashkiliy yordam berish;

- imkoniyati cheklangan bolalarning ota\onalari, inklyuziv ta'lim muassasalari pedagoglari, mutaxassislar, mahalla va jamoa tashkilotlariga aloxida extiyojli bolalarni tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlashda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- ta'limga jalb etilmagan bolalar ta'limiga tashkil etishga ko'maklashish;

- inklyuziv sinf va guruxlarni o'quv metodik majmualar, individual rivojlantiruvchi dastur, o'quv\metodik adabiyotlar, texnik vositalar bilan ta'minlashda amaliy yordam berish;

- joylardagi resurs markazlarga amaliy yordam ko'rsatish;

- inklyuziv ta'limni joriy qilishning ilmiy\uslubiy tashkiliy masalalari bo'yicha seminar\trening va konferensiyalar tashkil etish;

- rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga kasb\xunar urgatish, kasb\xunar kolledjlarga joylashtirish va ijtimoiy hayotga integratsiya qilish masalalarida yordam berish;

- inklyuziv ta'lim masalalari bo'yicha ma'muriy organlarga xatlar bilan murojaat qilib takliflar kiritish.

Biz barchamiz nogironlikni tushunishdagi ikki, ya'ni tibbiy va ijtimoiy yondashuvdagi tafovutlarni tushunib yetmasak, barcha bolalar, shu jumladan

o'ta jiddiy nuqsonli bolalarni ham bitta, hamma uchun yagona, oddiy va

xayrixoh ta'lim tizimiga jalb qilish uchun kurash samarasiz bo'lib qolaveradi.





**Jamiyatni inklyuziv ta'limga tayyorlash va ijobiy munosabatni uyg'otish va amalga oshirish.**

Jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar xakida bilimlarning yetishmasligi okibatida maxsus extiyojli bolalar ta'limdan chetda kolib ketmokdalar. Bundan tashkari nogiron bolaning kobiliyatlari, xukuklari va extiyojlari muntazam ravishda kadrlanmasa, bolalarda uziga vakobiliyatlariga nisbatan salbiy munosabat shakllanib boradi. Xar kanday jamiyatda xar bir bola noyob, maxsus extiyojli bolalar esa boshka bolalar singari xukuk, extiyoj va intilishlarga ega degan dalilni idrok etish zarurati mavuddir. Ushbu bilimlarni chuko'rlashtirish buyimkoniyati cheklangana ish olib borish bola, oila, xam jamiyat darajasida xamma uchun muximdir.

- inklyuziv ta'lim qashshoqlik va ajratish iskanjasidan qutulishga imkon beradi;
- kamsitishlarning oldini oladini oladi, imkoniyati cheklangan bolalarning teng huquqligini ta'minlaydi;
- inklyuziv ta'lim maxsus extiyojli bolaning o'z oilasi va jamiyat orasida bo'lishiga imkon beradi;
- inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikga olib keladi;
- inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- imkoniyati cheklangan bolalar sog'lom tengdoshlari orasida tabiy sharoitda yashash va mexnat qilishga moslashadilar;
- ularning ijtimoiy jamiyaga moslashishi samarali kechadi.

Yuqorida keltirib o'tilganlarni hayotga joriy etish uchun o'qituvchilar o'quvchilar bilan har kuni ularni qiziqtiruvchi va bezovta qiluvchi istalgan



mavzuda gaplashish imkoniyatini topish kerak. Bu insonlarga munosabatni muhokama qilishning boshlanishi bo'lishi mumkin, masalan, agar bola o'z tajribasi haqida gapira olmasa ham qolgan sinf esa uni qo'llab quvvatlasa, yoki bu bolani qarashlarini qoralashga o'rganishi mumkin. Bunda bolalar o'zlarini xavfsiz sezadilar va o'z qo'ruqlarini tinch holda bayon etadilar. Pedagog diskriminatsiya ildizlarini tarixiy va zamonaviy holda shunday tushuntirish kerakki, bolalar insonlardagi isalgan fikrlarni tushunish va qabul qilish mumkinligini anglab insonlar, ayniqsa kimkoniyati cheklanganik bolalar bilan ishlash osondir. Chunki ularning jo'shqin haqiqat hislarini qo'llashi va tun bo'yi muloqot qilishi mumkin. Bunday muammolarni ayrim bolalar bilan talaffuzda muhokama qilishiga ko'ra ochiq muhokamaga olib chiqish va jamoat bilan ko'rib chiqish ko'proq natija beradi. Lekin ayrim holatlarda yakka holdagi muhokama eng yaxshi varian bo'lishi mumkin. Barcha sinf va guruxlarda kimnidir hafa qilishgan bo'lsa, ozgina bo'lsa ham pedagog darsini to'xtatishi va buni muhokama qilishi lozim. Muxokamaning maqsadi ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Darslarda o'quvchilar guruhini shunday joylashtirish kerakki, bolalarda alohida holda moslamalardan bir oz foydalanib ishlash imkoniyatiga ega bo'lsin. Pedagogda ma'lum o'quv rejalarida majburiy bo'lgan topshiriqlarga egiluvchan moslashuvchan munosabatda bo'lishi kerak. Sinflar guruhlarga, juftliklarga bo'lish va individual topshiriqlar torshirishlari kerak. Guruh tarkibini turli insonlardan iborat ekanligini ishonch hosil qilish guruhlarda nogiron va sog'lom o'quvchilardan iborat bo'lishi talab etiladi. O'qituvchi har bir bolaning bajargan ishini individual maktab butun sinfning ishini baholashini va sinf yutuqlarini rivojlanishiga chaqirish lozim.

Yuqoridagilardan tashqari alohida e'tiborni bolalar oyoqlarini uzoq muddatga chalkashtirib o'tirmasliklariga qarating. Chunki bu noqulay, ularning jismoniy rivojlanishlariga yomon ta'sir etadi va diqqatni pasayishiga olib keladi. Ayrim bolalarga oyoqlarini chalkashtirib o'tirish umuman mumkin emas. Masalan, bolalar artriti bolalarga, shuningdek imkoniyati cheklangan bolalarning qulay qitirishlari uchun turli yordamchi vositalardan yostiqlar, stullar va boshqalardan foydalanish kerak.

### **Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi:**

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra mas'uliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin.

**Inklyuziv sinf o'qituvchisi** umumiy o'rta ta'lim muassasa Nizomida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda:

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

-bolalarning faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;



-diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanlik, sinchkovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi.

**Tarbiyachi** ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdek, tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

**Psixologning faoliyati** har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi **shifokor-pediatri (psixonevrolog)** har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davolash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

### **Inklyuziv ta'limda resurs pedagog va uning vazifalari**

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotda maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va bu maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs nogiron bolalar uchun kerak bo'lgan qo'llanmalar, jixozlar bilan ta'minlash, homiylar topish, ota-onalarni maktabga yordam berishga jalb qilish va imkoniyati cheklangan bolalar, sog'lom bolalar hamda sinf o'qituvchisi o'rtasidagi mustahkam aloqani



o'rnatish, masus resurs qo'llanmalarni ta'minlash orqali yordam berish, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilari va maktab ma'muriyatiga maslahatlar berish, shuningdek, maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari haqida muhokamalar yuritish, hatto nogiron bo'lmagan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turadi.

**Resurs o'qituvchi faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad:** umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar va ularning o'qituvchilariga yordam ko'rsatishdan iborat.

**Resurs o'qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:**

- har bir o'quvchini qaysi darajadagi yordamga muhtojligini aniqlash va ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda muntazam ravishda ular bilan uchrashish.

- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash, individual rejalardan kelib chiqqan holda ularni kuzatish, o'quv dasturiga moslashishiga yordam berish, o'qitish va baholash.

- sinf o'qituvchilariga o'quvchilarning maxsus ehtiyojlari va qobiliyatlariga oid ma'lumotlarni berish.

- sinf o'qituvchilarini individual o'quv rejalari bilan tanishtirish va ular bo'yicha maslahatlar berish.

- muntazam ravishda o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyotlarini muhokama qilish va baholash.

- maktab jamoasining boshqaruv xodimlari va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

- zarurat tug'ilsa, o'quvchilarni boshqa yordam ko'rsatuvchi uyushmalarga taklif etish (masalan, seminarlarga, shifokorlarga).

- o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan individual ravishda olib boriladigan faoliyatlarni qayd etib borish.

- standart o'quv reja talablariga javob bermaydigan vaziyatlarda har bir o'quvchiga individual o'quv reja tuzishga ko'maklashish;

- O'zgaruvchan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda individual o'quv rejalarni yangilash va baholash.

- mavjud barcha resurslar (o'quv adabiyotlar, o'qitish qurilmalari va boshqa asboblarni hujjatlashtirish va ular ro'yxatini tuzish.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi o'z vazifa va maqsadlaridan kelib chiqqan holda ish rejasini tuzishda quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarning maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablarga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish;
- Sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash;
- O'qituvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish;
- Bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u haqidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish;
- Yangi kelgan o'qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va qondirish;



- Maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish;
- Zarurat tug'ilganda sinfdan tashqarida individual va guruhlariga asoslangan ko'rsatmalarni berish;
- Individual dasturlarni muvaffaqiyatli bo'lishini boshqarish;
- Maxsus ta'limga muhtoj bolalarni maktabning jismoniy muhitiga jalb etishda ularning shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi;
- Maxsus yordamchi vositalar va qo'llanmalarga bo'lgan talabni o'rganish va ulardan foydalanishni boshqarish;
- Inklyuziv ta'limni rivojlantirishni qo'llab – quvvatlash kabi masalalardan iborat bo'ladi.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi faoliyat yuritmasligi, ko'p vaqtini yo'lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir.

Resurs o'qituvchi nogiron bolalarning darslaridagi qiyinchiliklarni va ehtiyojlarini muhokama qiladi. Vaqti-vaqti bilan u joylarda olib borilayotgan o'qituvchilar treningida nogironlik muammosi bo'yicha maslahat va ko'rsatmalar berib boradi. Masalan, nogiron bolaning nuqson xususiyatlarini, darajalarini aniqlash, individual psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha metodik tavsiyalar berish kabi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni Inklyuziv ta'lim tizimida o'qitish, tarbiyalash jarayonida pedagog va ota-onalarga maslahat beruvchi resurs markazlarning roli ham muhim ahamiyatga ega.

#### **Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy ishchi vazifalari**

- Bolani rivojlanishi uchun qulay bo'lgan muhitni tashkil qilish;
- Bola huquqini himoyalash qoidalariga rioya qilish;
- Bolani hayotiy ko'nikmasi, qobiliyatini, ta'lim olishi, sog'liqni saqlash, oiladagi sharoitlarini rivojlantirishga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondirish.

Bolani ijtimoiy himoyalash jarayonida ijtimoiy pedagog (ijtimoiy ishchi) bilan ishlash mumkin.

Har bir bola davlat himoyasida bo'lib, mamlakatimizda ijtimoiy qo'llash tizimiga barcha bolalar qamrab olingan.

Bolalarni ijtimoiy qo'llash tizimiga qiyin kechinmalarga tushgan (bolalar, boqimandasinin yo'qotgan, ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan, imkoniyati cheklangan, alohida yordamga muhtoj bolalar;

Institutsional muassasalarning bolalari;

Qarovsiz va tarbiyasi og'ir bolalar va boshqalar)

Ijtimoiy ishni maqsadi: bolani barcha ehtiyojlarini qoniqtirishga va uni oilasiga yordam berishdan iborat.

Bolani ijtimoiy himoyasining asosiy tamoyillari:

- Ijtimoiy yordam ko'rsatish ishining markazida bolani qiziqishi turadi;
- O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolati" qonuniga bola huquqlari Konvensiyasiga qayd etilgan bolalarni barcha huquqlari kiritilgan ;



- Bolani qabul qilish e'tirof etish hurmat qilish;
- Shaxsni jinsiy, diniy, madaniy, irqiy, millatidan qat'iy nazar har qanday kamsitishlarga qarshi chiqish;

Ijtimoiy pedagog (ijtimoiy ishchi) oldida bolani ijtimoiy himoyasi bo'yicha qanday vazifalar turibdi?

- Ijtimoiy pedagog va ijtimoiy ishchi bolani uy sharoitida yashash huquqini ta'minlaydi;
- Ijtimoiy pedagog bolalarni maxsus institutsional muassasalarga tushib qolishini oldini oladi.
- Ijtimoiy pedagog bolaga bolaga nisbatan noto'g'ri, nojo'ya, qat'iy muomila va harakat qilishga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi va himoya qiladi;
- Ijtimoiy pedagog imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatga, umumta'lim jarayoniga integratsiyalashuviga yordam beradi;
- Ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy ishchi bolani qulay bo'lgan sharoitida o'sishi uchun psixologik, ijtimoiy, moddiy yordamlarni qiyinchilikdan chiqib ketishi uchun yordam beradi;
- Bolaga va uning oilasini qo'llash uchun ijtimoiy pedagog yoki ijtimoiy ishchi qanday metod va yondoshuvlarni amalga oshiriladi;
- Ijtimoiy pedagog o'zini ish faoliyatiga tayangan holda nafaqat bolani va uning oilasi bilan tizimli ish olib boradi.
- Mavjud bo'lgan faktlarni tahlil qilib zamonaviy asboblardan foydalanib oila va bolalar holatini baholaydi;
- Oila va uni atrofida qilarga kuchli kuchli tomoniga tayangan holda yordam beradi.

Bunday jamiyat va oila uni atrofida qilarga ijobiy (pozitiv) o'zgarishlar kiritadi.

Qaysi muassasalar uchun ijtimoiy ishchi yoki pedagog kerak?

- Ta'lim tizimida mehribonlik uylari, umum ta'lim muassasalari, maxsus maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari va boshqalar;
- Sog'liqni saqlash tizimida: ilk yoshdagi bolalar uyi, oilaviy poliklinika, tibbiy-psixologo-pedagogik komissiya, rehabilitatsiya markazlari va boshqalar;
- Mehnat va aholini ijtimoiy himoyalash tizimida (muruvvat uylari, ijtimoiy ta'minot bo'limlarida);
- Voyaga yetmaganlar mahallalari komissiyasi, viloyati, tuman hokimiyatlari;

Bolalar va ularni oilalarini qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi oila tartibidagi voyaga yetmaganlarni joylash.


- Jamoa tashkilotlari va ularni birlashtiruvchi tashkilotlari.

Hozirgi kunda ijtimoiy ishchilarni tayyorlash O'zbekistonda 2004-2005 yilda boshlab uchta oliy ta'lim tizimida: A.Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat ma'daniyat institutida va Samarqand, Farg'ona davlat universitetlarida amalga oshirilib kelinmoqda. 2006 – yiladn boshlab O'zbekistonda amaliyotchilarni




tayyorlash bo'yicha faol ishlari bolani ijtimoiy himoyalash tizimida olib borilmoqda.

### Nogironlikning ijtimoiy modeli



### Nogironlikka tibbiy yondashuv



Nogiron kishilari asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlarning minimumini kam oluvchilar.

#### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi.
2. Inklyuziv ta'lim resurs markazining vazifalari:
3. Inklyuziv ta'limda resurs pedagog va uning vazifalari.
4. Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy ishchi vazifalari.
5. Maxsus maktablarda o'qituvchi va tarbiyachiga qo'yiladigan talabalar?



6. Nogiron farzandlari bor oilalarning ota-onalari bilan ishlash o'z ichiga nimani oladi?

**Adabiyotlar:**

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

**5-mavzu: Inklyuziv ta'lim tizimida uchraydigan muammolar va ularning yechimlari.**

**REJA**

- 1. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar.**
- 2. RNB bolalar turlari.**
- 3. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni keltirib chiqaruvchi sabablar.**

**Tayanch tushunchalar:** inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, korreksiya.

Bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik tizim asosida qonunyatlar yotadi, bular berilgan taklif ta'sirlarning (pedagogik sharoitlar kompleksi, didaktik model qoidalari, kompetent-kontekstual texnologiya shartlari) ta'lim natijalariga ta'sir ko'rsatadigan qonunlarga asoslanadi - PIT tarkibini tashkil etadigan kompetensiyalar kompleksini shakllantirish nazarda tutiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik tizimiga asoslangan qonunlar bir qator psixologik nazariyalarga asoslangan (motivatsion nazariya qoidalari, kognitiv, tarkibiy, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga tayanadi, shuningdek, D. Mers munosabatlar va hulqiy harakatlarining o'zaro ta'siriga oid nazariyasiga). O'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish jarayonining samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishida munosabatlarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini (assotsiatsiyalar, rag'batlantirish, shaxsiy yutuqlarni anglash, bilish va bilimlarning tarkibiy qismlariga ta'sir va boshqalar) muvofiqlashtirishni hisobga olish;

2) munosabatlarni o'zgartirishning psixologik vositalariga tayanish, xususan: axborotni qayta ishlashning ehtimoliy modelining markaziy yo'li, kelgusi kasbiy faoliyat uchun motivatsiya shartlarini ta'minlash, shuningdek amaliy kasbiy tajribani shakllantirish va hk.;





3) o'qituvchining kasbiy xulq-atvorini bashorat qilishning ishonchliligi (muomala-aloqa vaziyatlarida, o'zaro munosabat, didaktik, uslubiy va boshqa muammolarni hal qilishda).

O'qituvchilarning shakllangan inklyuziv tayyorgarligining barqarorligi va uning kasbiy xulq-atvoriga ta'siri ehtimoli boshqa ta'sirlarning (stereotiplar, noto'g'ri qarashlar, ksenofobiya va boshqalar) minimallashtirish darajasiga, o'qituvchining inklyuziv tayyorgarligining kasbiy xulq-atvor modellariga xosligi va ahamiyatligiga, shuningdek inklyuziv tayyorgarlikning mustahkamligiga bog'liq.

Oliy o'quv yurtlari sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish jarayonining qonuniyatlarini tavsiflab, ularni umumlashtirish darajasiga qarab ajratish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu jarayonning universal muntazamligi bu PITning ijtimoiy shartliligi, ya'ni o'qituvchining inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish maqsadlari, mazmuni, usullarining jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, shuningdek, barcha bolalarni hamkorlikda o'qitish amaliyotining samaradorligini ta'minlashga qodir pedagogik kadrlar tarkibini yaratishdir.

Boshqa tomondan, PIT shakllanish darajasi, bo'lajak o'qituvchining inklyuziv ta'lim muhitida ishlash niyati (moyilligi) uning kasbiy mahoratini va ijtimoiy ehtiyojlar va talablarga mosligini belgilaydi. IHL shakllanishini tartibga soluvchi umumiy qonunlar ushbu jarayon natijalarining IHL ijtimoiy atribut va tizimli hodisa sifatida shakllanishidagi psixologik shart-sharoitlarni ko'rib chiqishga bog'liqligini aniqlaydi. Maxsus aniqlangan natijalar va pedagogik kompleksning o'zaro bog'liqligini PIT shakllanish jarayonining shartlarini belgilaydi.

Aniqlangan qonuniyatlar bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish uchun pedagogik tizim tamoyillari kompleksni, shuningdek ularni amalga oshirish qoidalarini belgilab beradi.

Inson ustuvorligi prinsipi ta'limning insonparvarlik xususiyatini anglatadi, bunda bolaning o'zi uning ta'lim ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarining xususiyatlaridan qat'iy nazar muhim ahamiyat kasbga etadi. Ushbu prinsipni amalga oshirish qoidalari bo'lajak o'qituvchining har bir bolaning kuchli tomonlariga tayanishga yo'naltirilganligi, bolaning maxsus ta'lim ehtiyojlarini aniqlashning o'z vaqtida va aniqligi va ularni o'quv materialining mazmunini anglab yetishi uni hisobga olish o'quv materiallarini maoslashtirish yoki modifikatsiyalash, agar lozim bo'lsa maxsus didaktik vositalar va metodik usullardan foydalanish, o'quv natijalarini o'ziga xosligini baholashni bildiradi.

Vaziyatli va bashorat qilinadigan moslilik prinsipi pedagogik ta'lim mazmunining kasbiy va pedagogik faoliyatning hozirgi va kelajakdagi shartlariga muvofiqligini ta'minlaydi. Prinsip quyidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi: inklyuziv ta'lim makonida bo'lajak kasbiy faoliyat sharoitlarini modellashtirish; inklyuziv ta'limning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikda o'qituvchining roli va funksiyalarini tushunish uchun sharoit yaratish; bo'lajak o'qituvchilarni ko'ngillilar harakatiga jalb qilish (masalan, maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan



bolaga qo'shimcha sifatida); keys uslubi, pedagogik vaziyatlardan foydalanish va boshqalar.

Meta-fan prinsipi o'qituvchini tayyorlash uchun o'quv dasturining fan sohalari tarkibiy qismlarini mazmunli birlashtirishni o'z ichiga oladi, bu esa kognitiv dissonansni kamaytirish imkonini beradi. Prinsipni amalga oshirishning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: inklyuziv ta'limning g'oyalari va qadriyatlarini aniqlash imkoniyatlarini belgilash uchun o'quv dasturlari fanlari tarkibini tahlil qilish; munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilgan o'quv materialni o'zgaruvchanligi asosida takrorlash tizimi; olingan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash imkoniyatlarini namoyish etish.

Pedagogik tizimning dinamikasi va o'z-o'zini rivojlantirish prinsipi ta'limdagi isloxotlarga xos ravishda moslashuvchanlikni va qayta qo'rib chiqish imkoniyatini anglatadi va o'qituvchi ta'limi mazmunining ijtimoiy buyurtma talablariga muvofiqligini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Diagnostika prinsipi monitoring asosida aloqalarni qayta o'rnatishni nazarda tutadi: akademik, kasbiy va ijtimoiy hamda shaxsiy kompetensiyalar majmuasini shakllantirish sifatini aniqlash uchun diagnostika vositalarini ishlab chiqish va joriy etish; monitoring dasturini amalga oshirish bo'yicha tizimli ish olib borish.

Tarkibiy yaxlitlik prinsipi pedagogik tizim tarkibiy qismlari va uni amalga oshirish bosqichlari o'rtasida kuchli bog'liqlikni anglatadi.

Oliy ta'lim o'quv yurtlari o'qituvchilarining qadriyat-mazmunlilik kompetensiyasi prinsipi professor-o'qituvchilarning boshlang'ich (preventiv) tayyorgarligi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantirish, o'qitilayotgan fanlar mazmunini bo'lg'usi o'qituvchilarning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirish muammosini hal qilishda qo'llash vositasi orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy amaliy faoliyat tajribasini shakllantirish prinsipi quyidagilarni o'z ichiga oladi: amaliy pedagogik tajribani shakllantirish imkoniyatini ta'minlash; o'z tajribasini, shuningdek ta'lim sohasi sub'ektlari faoliyatini aks ettirish uchun sharoit yaratish; amaliy faoliyat tajribasini egallashda shart sharoitlarning har xilligi.

Pedagogik tizimning maqsadlari yaxlitlikni ta'minlaydi: strategik maqsad uning barcha ishtirokchilari uchun inklyuziv ta'limning samaradorligi va sifatini ta'minlashdan iborat; taktik maqsadlar bo'lajak o'qituvchilarining kognitiv, hissiy, konotativ, kommunikativ va refleksiv tarkibiy qismlarini shakllantirish ketma-ketligini aks ettiradi; operativ (protsessual va natijaviy) maqsadlar inklyuziv tayyorgarlik komponentlarini tashkil etadigan kompetensiyani shakllantirish shartlari va vositalarini belgilaydi.

Pedagogik tizimning protsessual (texnologik) darajasi kelajakda o'qituvchilarning kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida inklyuziv ta'limda ishlashga tayyorligini shakllantirish uchun pedagogik sharoitlarni yaratish va didaktik modelni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Protsessual darajadagi vazifalarni hal qilish meta-predmet kompetensiyasi-kontekst texnologiyasidan (MPKKT) foydalanish bilan amalga oshiriladi, uning



maqsadi bo'lajak o'qituvchining ta'lim effekti sifatida inklyuziv tayyorgarligini "immersiya" asosida ta'lim natijalari (kompetensiyasi) samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish

1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar diqqatini tarqoqligini xisobga olib partada ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak;

2. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar tez charchab qolishini xisobga olgan xolda, ular xarakterda bo'lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish («daftarlarni yig'», «doskani tozala» kabi);

3. Xar bir darsda jismoniy daqiqa o'tkazishni unutmaslik;

4. Sinfda lider qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchini aniqlab, «sinf boshqaruvchisi» (imkoniyati cheklangangina o'qituvchi) etib tayinlash (bu ukuvidan o'qituvchi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bola bilan ishlayotganda ko'proq foydalanadi);

5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni sinfdagi eng a'lochi o'quvchi bilan birga o'tkazish;

6. Darsda asosiy ko'rgazmallikka tayinlash;

7. Aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo'lib berish;

8. Bolani rag'batlantirishni unutmaslik;

9. Usullarning xilma – xilligidan doimiy ravishda foydalanish;

10. O'yin metodlariga maksimal darajada tayanish;

11. Bola topshiriqni bajarayotganda unga qo'shimcha yoki amaliy ko'rsatma xam berish;

12. Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolaning xam xissasi qo'shiladigan topshiriqlar berish;

13. Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolani nazorat ostiga olish.

Sinf va guruxlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish

Bolalar ongida irqchilik, nogironlik xamda imkoniyatlar kengligi xususida to'g'ri tushunchalarni shakllantirish inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda juda xam muhim axamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tushunchalarning mavjudligi sababli imkoniyati cheklangan bolalar xakorati va masxaralanishiga duchor bo'lmokdalar. Bundan xam ayanchlisi shu kabi salbiy munosabatdagi xulk-atvorni ayrim o'qituvchilarning e'tiborsiz qoldirayotganligidir. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun xam barcha maktablarda xamma bolalar uchun teng xuquqli, sevimli, do'stona iliq munosabatdagi muxitni yaratish lozim. Maktabda irqchilikni, nogironlik ustidan kulishni koralanishi va o'rtasidagi teng xukuklilik tushunchasini shakllantirish kerak. Biz quyida bolalar o'rtasida teng xuquqlikni tushunchalarni shakllantirish buyimkoniyati cheklangana tavsiyalar berildi:



-Pedagoglar barcha sinflarda bolalar o'z xayotlari va xis tuyg'ularini muxokama qila oladigan o'zoro qo'llab – quvvatlovchi va xamjixatlikdagi ijobiy muhitni yaratishga yordam berishlari lozim;

-O'quvchilar ongiga nogironlik – aloxidalik emas, balki kamchilikni majudligi natijasida imkoniyatlar chegaralanganligini tushuntira bilish lozim. Nogiron bolalardan qo'rqish, jirkanish xislarini yo'kotishga erishish talab etiladi.

Pedagoglar ayrim xolatlarda stereotiplarni ko'llashdan qochishlari va tashabbuslari qo'llashdan keyin xam bolalar oldida sharxlamasliklari lozim. Ular bolalarga nima uchun laqab qo'yish, masxara qilish, salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishini tushuntirib berishlari va bunga yo'l qo'ymasliklari talab etiladi.

Zarur bo'lgan xolatlarda imkoniyati cheklangan bolalarda ayrim o'quvchilar tamonidan bildiralayotgan salbiy munosabatlarni butun sinf bilan muxokama qilish o'rinli xisoblanadi. Ijobiy natijaga erishish uchun oxirgacha ko'rashish lozim.

Xar bir muxokama bolalarning yutuqlarining uning avvalgi yutuqlariga salishtirib, kayd etib, takidlab borish muhimdir. O'quvchilar bilan turli xildagi va psixologik testlar o'tkazishda bolaning irqiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, jinsi va nogironlikka oid savollarni bermaslik ayni muddao.

O'qituvchilar ishlarini va ularning yutuklarini barcha soxalarida maktab va maktabdan tashkari ishlarda namoyish kilib borish kerak. Darslarga materiallar tayyorlashda imkoniyati cheklangan bolaning ijod namunalarini xam kullash juda samara beradi.

Kitob, plakatlar va dasturlarni kullayotib, shunga ishonch xosil kilish kerakki,ular inklyuziv ta'limga mos kelishi kerak. Maktablar ochik bulishi, o'quvchilar, ota-onalar va pedagoglar mulokat kila bilishi kerak.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

- 1.Inklyuziv ta'limga jalb etiladigan bolalarga ta'rif bering.
- 2.Inklyuziv ta'lim tizimida o'quvtarbiya jarayonining tashkil etilishini izoxlang.
- 3.Sinf va guruxlarda inklyuziv ta'lim tushunchasini rivojlantirish xaqida tushuncha bering.

### **Adabiyotlar:**

1.R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.



#### IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar.

Ushbu mashg'ulot turi o'quv dasturidagi mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda amaliy topshiriqlarni bajarish tavsiya yetiladi. Talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarni amaliy mashg'ulotlari orqali yanada boyitadilar.


Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

#### mashg'ulot topshiriqlari

#### “BBB” jadvali

Bilib oldim	Bilmayman	Bilmoqchiman

**(Ish guruhli, individual tarzda tashkil etilishi mumkin).**



#### “Ikki qismli kundalik”

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirish



**1-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etishda maktab ta'lim muassasalari raxbariyati va pedagoglarning vazifasi**

**Ishning maqsadi:** Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga joriy etishda maktab direktori, o'qituvchilari, psixolog va defektologlarning vazifalari bilan tanishtirish.

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:

- Inklyuziv maktab
- Maktab direktori ....
- O'qituvchilari....
- Psixolog....
- Defektolog....

2-ilova

Munozara uchun savollar:

- Inklyuziv ta'lim maktablarini imkoniyatlari haqida fikringizni bayon eting
- Maktab direktorlari qanday vazifalarni bajarishadi? Sizning fikringiz



- Inklyuziv sinf o'qituvchilarining vazifalari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
- Olin ta'lim muassasalariga inklyuziv ta'limni joriy qilishga sizning munosabatingiz
- Maktab direktori, o'qituvchilari, psixologlari va defektologlarining vazifalari nimalardan iborat?

### 2-amaliy mashg'ulot: Inklyuziv ta'lim bo'yicha chet el tajribasi

**Ishning maqsadi:** Inklyuziv ta'lim bo'yicha Chet el tajribasi bilan tanishish (Angliya, AKSh. Italiya, Avstriya, Litva. Fransiya).

1-ilova

Blis-so'rov: "Tarixiy bilishning o'ziga xosligi va tarixiy bilish tamoyillari".

Yakka baho	Yakka xato	Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni

2-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Inklyuziv ta'lim bo'yicha xorij tajribasi bilan tanishdingizmi?
2. AQSH tajribasi ...
3. Angliya tajribasi ...
4. Italiya tajribasi ...
5. Avstriya tajribasi ...



6. Litva tajribasi ...
7. Fransiya tajribasi ...

### 3-amaliy mashg'ulot: Inklyuziv ta'lim bo'yicha Respublikada olib borilgan va olib borilayotgan faoliyat

**Ishning maqsadi:** Respublikada inklyuziv ta'limnash tarixi chet el loyihalari va ularning natijalari. Respublikada hozirgi davrda olib borilayotgan ishlar

1-ilova

#### Amaliy mashg'ulot topshiriqlari

1. Inklyuziv ta'lim bo'yicha Respublikada olib borilgan ishlar hakida fikringiz
2. Bugungi Inklyuziv ta'limga bo'layotgan e'tibor sizga maqulmi?
3. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasiga sizning fikringiz.
4. 2020-2025 yillarda xalk ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi (O'z.R Prezidentining 13.10.2020 y. PQ-4860- son qarori)ga munosabatingiz

2-ilova

#### B./ B./B metodi

Av	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1.	Inklyuziv ta'lim nima?			
2.	Inklyuziv ta'lim bo'yicha Respublikada olib boriladigan ishlar			
3.	Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi			
4.	Inklyuziv ta'lim bo'yicha Prezident qarorlari			





#### 4-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPK ning roli.

**Ishning maqsadi:** Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPK ning maqsad, vazifalari va saralash metodikalari bilan tanishtirish

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharxlab bering:

1. Imkoniyati cheklangan bolalar haqida tushuncha
2. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish
3. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning maqsadi
4. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning vazifalari
5. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning saralash metodikalari bilan tanishtirish

2-ilova

B./B./B metodi

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish			
2.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning maqsadi			
3.	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etishda TPPKning vazifalari			
4.				



**5-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda individual dasturlarini tuzish, metodik va didaktik ta'minotni yaratish.**

**Ishning maqsadi:** Imkoniyati cheklangan bolalarni hususiyatlarini, nogironligini e'tiborga olgan holda individual dasturlarini tuzishga o'rgatish, metodik va didaktik ta'minotini tayyorlash usullari bilan tanishtirish.

1-ilova

Quyidagilarni sharxlab berish:

1. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitish.
2. Individual dasturlar tuzish
3. Metodik ta'minotini yaratish
4. Didaktik ta'minotini yaratish
5. Imkoniyati cheklangan bolalarni hususiyatlari

2-ilova

«Tushunchalar tahlili» uslubidagi tarqatma materiallar.

Tushunchalar	Mazmuni
Imkoniyati cheklangan bolalar	
Ta'lim jarayoni	
Individual dasturlar tuzish	
Metodik va didaktik ta'minot	



3-ilova

**Munozara uchun savollar**

1. Imkoniyati cheklangan bolalarni hususiyatlarini ochib bering.
2. Nogironligini e'tiborga olgan holda individual dasturlarini tuzishga o'rgatish uchun nimalarni tavsiya qilasiz metodik va didaktik ta'minotini tayyorlash usullari bilan tanishtiring.

**6-amaliy mashg'ulot: Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni talim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni talim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila na jamoatchilik bilan ishlashni o'rgatish.

1-ilova

«Tushunchalar tahlili»

Tushunchalar	Mazmuni

2-ilova

**Savol varag'i №1**

**Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni talim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash**

1. Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalar ta'limi
2. Ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlash



## Savol varag'i №2

**Talabalarga maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni talim tizimiga jalb etishda ota-onalar, oila va jamoatchilik bilan ishlashni o'rgatish.**

1. Maxsus yordamga muxtoj bo'lgan bolalarni talim tizimi
2. Jamoatchilik bilan ishlash

**7-amaliy mashg'ulot: Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalar, mahallalar va pedagoglarning o'rni hamkorligi.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga uzluksiz ta'lim tizimida korreksion pedagogik ishlarni tashkil etishning tashkiliy, huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish usullari haqida bilim berish.

1-ilova

### «Tushunchalar tahlili»

Tushunchalar	Mazmuni

2-ilova

Munozara uchun mavzu:

Mavzu	Sizning fikringiz
Inklyuziv ta'lim rivojlanish samarasi	



Munozara uchun mavzu:

Mavzu	Sizning fikringiz
Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda otalar, maxallalar va pedagoglarning o'zini hamkorligi	



### V. KEYSLAR BANKI

1-Keys. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlarida ananaviy va noanaviy ta'lim texnologiyalari afzallik yoki kamchiliklari

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Echim	Natija
Maktabgacha ta'lim muassasasida badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashg'ulotlarini sifat va samaradorligini oshirishda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalari afzallik yoki kamchiliklari	<p>An'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq defektolog shaxsiga qaratilgan bo'lib, mashg'ulotning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalaridan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.</p> <p>Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida bola shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir</p>	<p>Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida o'quvchi shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir</p>

2-Keys topshirig'i: Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyalari

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:

Asosiy farqlar	
Afzalliklari:	Kamchiliklari:
<p>1. Aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish</p> <p>2. Defektolog tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish</p>	<p>Aniq ilmiy bilimlarga tayanish bo'lishi mumkin</p> <p>2. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarning shakllanishi susayadi</p> <p>3. Tasavvurlarni o'zgarimasdan qolishi</p>



muhitini yuqori darajada nazorat qilish 3.Vaqtdan foydalanish 1.	unumli	Ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining pastligi 4. Mashg'ulotning bir xil qolipdaligi, bir xilligi 5. Defektologning to'la nazorati barcha tinglovchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi 6.Ta'lim oluvchilar tarbiyachi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi 7.Eslab qolish darajasi hammada teng bo'lmaganligi sababli guruhda o'zlashtirish pastligi
---	--------	--

3-Keys topshirig'i: Surdopedagoglarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka bahosi	Muomolar yechimi
					Mashg'ulot mavzusini belgilash
					Mashg'ulotning rejasini tuzish
					Mashg'ulotning maqsadini belgilash
					Mashg'ulotning mazmunini tanlash
					Mashg'ulot o'tkaziladigan joyni jihozlash hamda kerakli texnikani tayyorlash
					Mashg'ulotni boshlash yo'lini tanlash va uning ishlanmasini yozish
					Mashg'ulotni vaqtlarga bo'lish
					Bo'lajak mashg'ulotning eng qiziqarli, ta'sirli nuqtalarini tanlash
					O'tkazilgan mashg'ulotning yakuniy tahlili va keyingi mashg'ulotga tayyorgarlik



**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida o'quv mashg'ulotlarining integratsiyalashuviga doir modelni o'rganish hamda, mashg'ulotlarining umumiy korreksion vazifalarini yoritish

**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'quv mashg'ulotlarida nutqni (so'zlashuv, bog'langan nutqi) rivojlantirish modelini izohlang, misol keltiring

**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida Nutq o'stirish mashg'uloti dastur mazmuniga muvofiq fan bo'yicha ma'lum hajmdagi tushunchalari bolalarning lug'at zahirasi kiritiladi. Lug'at yosh nutqiy materialni tanlash modelini o'rganing va mazkur model asosida "Uy hayvonlar", "Yovvoyi hayvonlar", "Yovvoyi hayvonlar", mavzusi asosida misol keltiring

**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tafakkurini rivojlantirish mazmuni modelini o'rganing va uni og'zaki izohlang

**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida bolalarni tafakkurini rivojlantirish ta'minlovchi metodik sharoitlar modelini yarating

**Muammoli topshiriq.** Maxsus maktabgacha ta'lim muasasasida bolalarni nutqini rivojlantirish ta'minlovchi metodik sharoitlar modelini yarating





## VI. GLOSSARIY

**Adaptatsiya** – organizmning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi, sezgi organlariga ta'sir manbalariga adaptatsiya natijasida analizatorlar sezgirligining o'zgarishi. Anomal bolalar – jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolgan va maxsus ta'limga muhtoj bolalar.

**Asteniya**– toliqish, kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, uyqudagi vegetativ **Affektiv buzilishlar** – ruhiyatdagi buzilishlar

**Analizatorlarning o'zaro aloqalari** – sensor sohasi birligi namoyon bo'lishining bir turi.

**Brayl sistemasi**– Ko'zi ojiz bolalar o'qishi va yozishi uchun mo'ljallangan relef-nuqtali shriftdagi alifbo.

**Bilishga qiziqish** – faoliyat jarayonida voqelik predmetlari va hodisalariga faol munosabatdan kelib chiqadigan bilimga intilish.

**Bola (bolalar)** – o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs (shaxslar).

**Gipodinamiya** – harakatlanish faolligining susayishi.

**Diqqat** – bir vaqtning o'zida ob'ektlardan diqqatni ko'chirishda ongda aks etuvchi boshqa ob'ektlarning ajralib chiqishini ta'minlovchi ruhiy faoliyatning tashkiliy shakli.

**Daktil alifbosi** – eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun o'qishda va yozishda qo'llaniladigan yordamchi nutq turi.

**Defektologiya** sohasi tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediyaga bo'linadi.

**Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlar mavjud bola** – Imkoniyati cheklangan bolalikka chiqarishga yetmaydigan jismoniy, aqliy, sezish (his-tuyg'u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari mavjud bola.

**Zaif ko'ruvchilar uchun kitoblar** – ko'rish imkoniyatini beruvchi misol va ramzlar yirik harflar bilan yozilgan kitoblar.

**Ijtimoiy adaptatsiya** – individning yangi ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashuv jarayoni; bu jarayon natijasi.

**Ijtimoiy maishiy yo'naltirish mashg'ulotlari** – hayot faoliyati uchun zarur ijtimoiy malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar.

**Integratsiyalangan ta'lim** – ruhiy-jismoniy nuqsonga yega bo'lgan bolalar yextiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalga oshirish, umumta'lim muassasalariga jalb qilish.

**Inklyuziv ta'lim** – imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalarida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda uyg'unlikda ta'lim olishi.

Inklyuziv ta'lim modeli, texnologiyasi – uzluksiz ta'lim shart-sharoitlarida imkoniyatlari cheklangan bolalarning me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o'zaro aloqada bo'lishning variant va shakllari.

Ijtimoiy rehabilitatsiya – tibbiy tadbirlar majmuasi, ta'lim, tarbiya, kasb tanlash, ishga joylashtirish va boshqalar.

Imkoniyatlari cheklangan bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi – jamiyatda qabul qilingan hulq qoida va me'yorlariga nisbatan mushkul hayotiy shart-sharoitdagi



bolaning faol moslashuv hamda hayot faoliyatida mavjud muammolarni bartaraf yetish jarayoni.

Ko'zi oqiz va zaif ko'ruvchilarning ijtimoiy-mehnat rehabilitatsiyasi – ko'rlik va yomon ko'rishning salbiy oqibatlarini bartaraf yetish va Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb yetishga yordamlashuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ishlab chiqarish, tibbiy, psixologik-pedagogik tadbirlar tizimi.

Ko'rlar uchun kitoblar – Brayl tizimi bo' imkoniyati cheklangana sezgi orqali qabul qilish uchun bo'rtirma-nuqta harflar bilan yozilgan kitob.

Kompensator jarayonlar – organizm, o'zining buzilgan funksiyalarini ishdan chiqqan tizimlarini, alohida organlar va ularning tarkibiy qismlari yordamida sog'lom organlar bilan qoplash.

Korreksiya – bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini pedagogik usullar va tadbirlarning maxsus tizimi yordamida to'liq yoki qisman tuzatish.

Korreksion mashg'ulotlar – ruhiy-jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatish va bartaraf yetishga oid mashg'ulotlar.

Ko'nikmalar – o'zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajriba asosida hatti-xarakatlarning tez, aniq, ongli bajarilishiga tayyorgarlik.

Qo'zg'aluvchanlik – organizmning ayrim (ruhiy, muskul, bez) to'qimalarning ta'sir qiluvchilar harakatlariga o'ziga xos reaksiya bilan javob qaytarish xossasi.

Qo'zg'alish chegarasi – his-hayajonni paydo qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi.

Qo'zg'atish – atrof va imkoniyati cheklanganki muhit omillarining (qo'zg'atuvchilar) organlar va to'qimalarga ularning dastlabki holati o'zgarishiga olib keluvchi ta'siri.

Labdan o'qish – gapirayotgan shaxsning nutqini ko'z orqali qabul qilish. Bolalarni yeshitish qobiliyati funksiyasini ko'rish qobiliyati bilan qoplashni amalga oshirishga o'rgatuvchi o'quv-korreksion fan.

Maxsus metodika – rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini nazarda tutuvchi ta'lim metodikasi.

Maxsus pedagogika – nuqsonli bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish to'g'risidagi fan.

Maxsus ta'lim – ta'lim jarayonida nuqsonli bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish va to'ldirish. Maxsus maktab o'quvchilarida ommaviy maktablarda ta'lim oluvchilardagi kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda maxsus bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni shakllantirish.

Maxsus ta'lim yehtiyojlari – maxsus tashkil qilingan sharoitlarda bolaning ruhiy-jismoniy holati bilan bog'liq maxsus dasturlar bo'yimkoniyati cheklangana o'qitish zaruriyati.

Maxsus metodika – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish mazmunining metodikasi.



Mestriling – Imkoniyati cheklangan bola bolalarni o'z tengdoshlari bilan turli xil, darsdan tashqari tadbirlarda o'zaro muloqoti.

Murakkab nuqsonlar – bir kishida mavjud ikki yoki bir necha jismoniy yoki ruhiy kamchiliklar.

Moslashuv reaksiya – organizmning ta'sir qiluvchi manbani yanada yaxshiroq qabul qilishga va tahlil qilishga va unga javob qaytarish uchun analizatorlarni sozlashga yordam beruvchi atrof-muhitning o'zgarishiga reflektor reaksiyasi.

Imkoniyati cheklangan bolalik – organizmning kasallik yoki jarohat natijasida ma'lum bir kasbda to'liq yoki qisman barqaror funksional buzilishlarga, saviyaning pasayishiga olib keluvchi holati.

Imkoniyati cheklangan bola bola – jismoniy, aqliy, sezgi (his-tuyg'u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari tufayli hayot faoliyati cheklangan, ijtimoiy yordam, muhofazaga muhtoj va qonun tomonidan belgilangan tartibda Imkoniyati cheklangan bola deb ye'tirof yetilgan bola.

Imkoniyati cheklangan bola va imkoniyatlari cheklangan bolalarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi – bolalar tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va funksiyalarni tiklash, hayotini ta'minlash muhitini yaratish, ularga g'amxo'rlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi.

(Psixologiyada) assotsiatsiyalar – biror jarayonning u bilan bog'liq boshqa alohida ruhiy jarayonlar va hodisalar (tasavvurlar, fikrlar, his-tuyg'ular) o'rtasidagi aloqalar.

buzilishlarga olib keluvchi asabiy-ruhiy kamchilik.

Patogenez – kasallik, patologik jarayon yoki holat rivojlanishi mexanizmi.

Ruhiy funksiyalar – miyaning aks yettirish faoliyatining turli shakllari: sezish, qabul qilish, xotira, fikrlash va hokazaolar.

Ruhiy rivojlanish – inson hayotining turli bosqimkoniyati cheklanganlarida uning bilish faoliyati va shaxsi xarakterining shakllanishi va takomillashuvi.

Rivojlanishdagi nuqson – me'yoriy rivojlanishning buzilishini keltirib chiqaradigan jismoniy va ruhiy kamchilik.

Reabilitatsiya – organizmning buzilgan funksiyalari hamda kasallar va Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy funksiyalari va mehnatga layoqatligini tiklash yoki o'rnini qoplashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy tadbirlar majmuasi.

Rag'bat – amaliy harakatga undov, turtki.

Sog'liq imkoniyatlari cheklangan bola – jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishda nuqsonlarga yega, ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bola.

Sensor tarbiya – sezgi, ko'rish, yeshitish, his qilish va boshqa organlarning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik usullar jamlanmasi.

Sindrom – bir patogenezda birlashgan alomatlar jamlanmasi.

Skolioz – umurtqaning yonboshdan qiyshayishi.



Sezgi organlari – sub'ektni o'rab turgan muhitdagi (eksteroretsepsiya) va uning organizmidagi (interoretsepsiya) o'zgarishlar to'g'risida xabar beruvchi signallarni qabul qilishga moslashgan asab organlari.

Taktil retseptor – teri yuzasiga, ba'zi shilliq pardalarga teginish va bosim o'tkazish retseptori.

Tiflopedagog – ko'r va yomon ko'ruvchi bolalar va o'smirlarning bilish faoliyati va buzilgan (kam rivojlangan) funksiyalaridan kelib chiqqan holda ularning ta'lim, tarbiya, politexnik va mehnat tayyorgarligini amalga oshiruvchi maxsus oliy ma'lumotli pedagog.

Tiflopsixologiya – maxsus psixologiyaning ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi, ta'lim va tarbiyada uni tuzatishning yo'llari va usullarini o'rganadigan bo'limi.

Tolerantlik – tevarak-atrofdagilarga nisbatan bag'ri keng, do'stona munosabat.

Taqlid qilish – biror kishining hatti-xarakatlari, qilmishlari va hokazalar ongli va ongsiz ravishda bajarilishidan tashkil topgan xulq shakli.

Tushunish – hodisalar yoki predmetlarni ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash yo'li bilan tushunib yetish jarayoni.

Tibbiy-mehnat yekspertizasi – kasal, jarohatlangan yoki tug'ma nuqsonli kishilarning mehnatga loyiqligini aniqlashning ijtimoiy davlat faoliyati amaliy tizimi.

Tibbiy-pedagogik konsultatsiya – nuqsonli bolalarni tegishli o'quv-tarbiyaviy va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llash maqsadida ularni kompleks tibbiy-ruhiy-pedagogik ko'rikdan o'tkazadigan maxsus muassasa.

O'zini intizomga bo'ysundirish – o'z hulq-atvoridagi intizom, o'zini tuta bilish. Himoya reflekslari – organizmning tabiiy ravishda me'yoriy faoliyatini izdan chiqaruvchi ta'sir omillariga reaksiyalari.

Eshitib-ko'rib qabul qilish – yeshitish qobiliyati ancha susaygan bolalarning nutqni lablar va yeshitish yordamida qabul qilishi. Bu yerda tovushni kuchaytiruvchi aasboblardan foydalanish dastavval shart.

Etiologiya – xastaliklar va patologik holatlar paydo bo'lishi sabablari va sharoitlari to'g'risidagi fan.



## VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" - Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
3. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish" mavzusidagi ilmiy - nazariy konferensiya materiallari. Toshkent-"Uzinkomsentr"-2002 yil.
4. Aminova V.Yu. Integrirovannoye obrazovaniye dlya detey s osobymi nujdami v doskolnykh i shkolnykh uchrejdeniyax massovogo tipa (Metodicheskiye rekomendatsii) MNO RSO Resursno'y sentr YuNESKO Tashkent 2002
5. "Dakarskiye ramki deystviy"- YuNESKO-2000 yil. Fransiyada chop yetilgan. Kislitsina I.K. «Inklyuzivnoye obrazovaniye-obrazovaniye dlya vsekh»(osnovnyye ponyatiya i kratkiy obzor mejdunarodnogo opyta) sozdano pri podderjke Yevropeyskogo Soyuza. Tashkent, 2004
6. Ko'rishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. Tuzuvchi Grigoryans
7. «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.
8. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil yetish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T., 19 syentyabr, 2005.
9. "Maktablar hamma uchun"- "Bolalarni qutqaring jamg'armasi" -2002 yil.
10. "Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o'quvchilar"- YuNESKO - 1999 yil.
11. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995
12. Yuneskoning 2003 yil O'zbekistonda 2–4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta'lim» ga oid seminarii xujjatlari.
13. "Проблемы v klyucheniya detey so spetsialnymi obrazovatelnyimi potrebnostyami v obsheobrazovatelnyy proseye" Materialy respublikanskogo seminaru Almaty.- Almaty «Raritet» 2002 yil.
14. Pulatova F., Oligfreno pedagogika .G'ofur G'ulom, 2006
15. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YuNESKO-2004yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma. Raxmanova V.S Maxsus pedagogika G'ofur G'ulom nashriyoti, Toshkent, 2004
16. Sodiqova G.A., Nurkyeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan bolalar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
17. Surdopedagogika pod red. Nikitinoy M.I. M., Prosveshenie, 2002
18. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.



19. Ture Yonson "Inklyuziv ta'lim"-“Opereyshen Mersiy” Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
20. Fayziyeva U.Yu., Abdurazakova D. Do'stona munosabat muxitidagi maktab. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisyef. XBJ. T., 2005.
21. Fayziyeva U., Nazarova D., Kolbayeva X.J. Eshitishida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limi. O'XTV Avloniy nomidagi XTRXMOMI, BMT Yunisef. XBJ. T., 2005.
22. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari Nizom. T., 2005
23. Shomaxmudova R. Bolalar talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish. T., 2001
24. "Halqaro forum materiallari"-Toshkent - Respublika bolalarni ijtimoiy adaptatsiyalash - 2005 yil.